



**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi
Buxoro Davlat universiteti
Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti
Iqtisodiyot kafedrası
Himoyaga ruxsat etildi**



Kafedra mudiri _____ i.f.n. H.O.Raxmonov

«_____» _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Kasanachilik, uning zamonaviy iqtisodiy mohiyati, vazifalari va o`qitish xususiyatlari

Bajardi: 5140900 – “Kasbiy ta`lim” (ijtimoiy – iqtisodiy soha)
yo`lanishi kunduzgi bo`lim 4 “E” guruhi talabasi

Toxirov Javlon
katta o`qituvchi Fayziyeva S.A.

Ilmiy rahbar

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

«_____» _____ 2012 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

MUNDARIJA

Kirish_____

1 bob. KASANACHILIK - XALQ FAROVONLIGINI YANADA YUKSALTIRISH VA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA.

1.1. Kasanachilik, uning mohiyati va vazifalari_____

1.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kasanachilik faoliyatining tutgan o'rnini va uni tasdiqlovchi qonunlar_____

1.3. Ishsizlikni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishda kasanachilikning dolzarbligi_____

2 bob. Mamlakatni modernizatsiya qilish davrida kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha Respublikamizda olib borilayotgan chora – tadbirlar, erishilayotgan yutuqlar va ularni dars jarayonida o'rganish.

2.1. Kasanachilik sohasi oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai sifatida_____

2.2. Kasanachilik – ish bilan bandlikdagi yangicha yo'nalish va ichki manbalarni samarbar etish_____

2.3. Kasanachilik faoliyatining iqtisodiy ko'satgichlardagi ifodasi_____

2.4. Hududlarda olib borilayotgan chora – tadbirlar (Buxoro viloyati misolida)_____

2.5. Kasanachilik masalalari bilan bog'liq mayzularni o'rganishda qo'llanilishi tavsiya etiladigan yangi interfaol o'qitish usullari_____

XULOSA VA TAKLIFLAR_____

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI_____

ILOVA_____

KIRISH

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohatlarning pirovard natijasi oillar farovonligini ta'minlashga qaratilgandir. Ushbu masala yuzasidan kasanachilik sohasi juda muhim o'rin tutadi. Quyida biz kasanachilik xaqida, uning ahamiyati va vazifalari, uning Respublikamizda rivojlanish tendensiyalari, olib

borilayotgan ishlar va erishilayotgan yutuqlar xaqida ma'lumotlarni batafsil yoritganmiz.

Xurmatli Prezidentimiz I. A. Karimov 2012 yilning 19 yanvarida 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzalarida quyidagi so'zlarni aytdilar"... Hech kimga sir emas, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko'ra, aholi bandligi masalalari o'zining dolzarbligi va o'tkirligini saqlab qolmoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi... Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hisobidan 480 mingdan ziyod kishini ishga yo'naltirish, birinchi navbatda, korxonalar bilan hamkorlikda mehnat shartnomalari asosida kasanachilikning turli shakllarini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 210 mingdan ortiq kishining bandligini ta'minlash rejalashtirilgan".("Qishloq xayoti" gazetasi, 20 yanvar 2012 yil 9 – 10 (79- 39) soni). Demak, kasanachilik bilan bog'liq bo'lgan muammolarga e'tibor hukumatimiz rahbarlari tomonidan zinhor susaymagan.

Xalq farovonligiga erishishning birdan bir yo'li oilavit tadbirkorlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq. Chunki, oilada tadbirkorlikning rivojlanish, inung ommaviy tus olishi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini, ya'ni oila daromadlarining ko'payish va ish bilan bandlik masalalarini osonlik hal etish omilidir. Shu bois ushbu soxa xozirgi kunda jadal rivojlanmoqda. Kasanachilikni qo'llab-quvvatlash nafaqat aholini ish bilan ta'minlash, balki mamlakat oqtisodiyotini rivojlantirishda xam muhimdir.

Prezidentimiz 2006-yil 5-yanvardagi "yirik sa'noat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish" chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni hamda hukumatining tegishli qarori buning yana bir yorqin dalilidir. Zero, mazkur xujjatlarning xayotga tadbqiq etish orqali bir qator vazifalarning ro'yobga chiqarish ko'zda tutilgan.

Xususan ish bilan band bo'lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb qilish oila byudjeti daromadlarini ko'paytirish uy mexnatidan joylangan xolda butlovchi qismlar, tayyor maxsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba'zi bir xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish yo'li bilan yirik sanoat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Aholi tarkibida yoshlar salmog'i kattaligi ish bilan ta'minlashda izchil, chuqur o'ylangan siyosat yuritishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ana shunday siyosat ishlab chiqilib, muvafaqiyatli tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Bugungi kundga kelib bozor munosabatlarining shiddat bilan rivojlanishi bu muammoga yangidan yondashishni talab etib, oilaviy tadbirkorlikning bunday an'anaviy ko'rinishini tiklay boshladi. Bugun ular oilaviy korxonalar, xonadon cexlari, oilaviy tadbirkorlik va mikrofirmalar deb xam yiritilmoqda.

Men bajargan bitiruv-malakaviy ish mavzusi samonaviy O'zbekiston uchun, uning iqtisodiy masalalarni yechishi, xozirgi va keyingi rivojlanishi uchun juda dolzarb deb hisoblayman. Bu mavzuni o'rganishdan maqsad kasanachilikning

mohiyatini tushunib etish, imkoniyatlarini o'rganish, odamlar va korxonalar o'rtasidagi zamonaviy iqtisodiy aloqalarning takomillashib borayotganligini hamda o'zaro kooperatsiya munosabatlarining rivojlanishi qator ijtimoiy, moliyaviy, iqtisodiy muammolarni echishi mumkinligini isbotlashga xarakat qilishdir. Bu mavzuni o'rganishning vazifasi ko'pqirrali bo'lib, iqtisodiyotning real sektorlarida va xizmat ko'rsatish sohalaridagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning buyutmaları asosida kasanachilar bilan mehnat shartnomalari tuzilib uyda odamlarni ish bilan ta'minlash, ularni ijtimoiy himoya qilish, bandlik muammolarini yechish, oilalar daromadlarini ko'paytirish orqali xalq farovonligini oshirish, turli ishlab chiqarish birliklariaro kooperatsiyani kuchaytirishdir. Men o'rgangan mavzuning ob'ekti esa kasanachilik faoliyatining mamlakatimiz va xususan, Buxoro viloyati xududidagi bugungi ahvolidir.

Men tayyorlagan bitiruv – malakaviy ishim kirish, uch paragrafdan iborat birinchi bob, besh paragrafdan iborat ikkinchi bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilova qismlaridan iborat

1.1.Kasanachi-uyda ishlovchi ish beruvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida o'z mehnat vazifalarini uylarida bajaruvchi xodimlar toifasi.

Kasanachi ish beruvchining materiallari va asaboblaridan foydalanib,o'z uyida mehnat qiladi.O'z mehnat qurollari va asabob uskunalardan foydalangan taqdirda ularning eskirish xarajatlari ish beruvchi o'z xoxishi bilan kasanachilikni tashkil qiladi.Xar bir xodim bilan uyda ishlash bo'yicha mehnat shartnomasini tuzishi amal qilib turgan shu mehnat shartnomasida o'zgartirish va qo'shimcha kiritish mumkin.Kasanachilik bo'yicha mehnat shartnomalari asosan voyaga yetmagan bolalari bo'lgan ayollar,nogironlar,pensionerlar,nogiron yoki boshqa bemorlar oila a'zolarini parvarish qilayotgan shaxslar,mavsumiy ishlarga band bo'lgan tegishli mehnat majburiyatlarini uyda ado etish uchun zarur uy joy va maishiy sharoitga rga bo'lgan shaxslar bilangina tuzilishi mumkin.

Kasanachilik mehnati,ish vaqti ish beruvchi bilan kelishib olingan xolda ularning vosita o'zi tomonidan amaldagi mehnat qonunchiligi talablari doirasida belgilanadi.Kasanachi mexnat xodim va ish beruvchining o'zaro kelishuvi asosida,bajarilgan ish miqdori,xamda sifatiga mutanosib tarzda eng kam oylik ish xaqidan kam bo'lmagan va eng ko'p miqdori cheklanmagan hajmda ish xaqi to'lanadi.Kasanachilarga tovar va boshqa moddit boyliklar ish jarayonida foydalanish uchun topshirilgan taqdirda ish beruvchi ular bilan qonunda belgilangan shaklda yoki siklda shartnoma tuzish lozim.

Kasanachilik-xunarmandlarning mehnat shartnomalari asosida yollanib o'z uyida ishlashi,yashash joyida ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.Kasanachilikda maxsus tashkilot va korxonalar bilan kelishuv shartnoma asosida buyurtmalar bajarilad.Jamiyatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish qo'shimcha daromad topish.Ish vaqtining qat'iy belgilanmaganligi,maxsus binolarda extiyoji bo'lmasligi va boshqakasanachilikning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.Rivojlangan mamlakatlarda kasanachilik keng qo'llaniladi.A.Q.SH.da kasanachilak usulida ishlaydiganlar soni 5mln kishidan ortiq.

Yaponiyada elektro texnika,elektronika,turizm kabi tarmoqlarda xam keng qo'llanilad.Bu faoliyat to'la bo'lmagan ish kuniga kiradi.

Oiladan,ishidan ajralib,korxona tashkilotlarda ishlash imkoniyati bo'lmagan va yordamchi daromadga muhtoj shaxslar uchun kasanachilik o'ziga xos tashkilotchilikni talab qiladi.Xom ashyo, materiallarini yetkazib berish,tayyor mahsulotlarni olib ketish,xisob-kitobning belgilanmagan vaqtida olib borilishi zarur shart xisoblanadi.

Kasanachilik-16 yoshdagi va undan katta yoshdagi (agarda kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to'liq, yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuzilishi zarurligini talab etsa 18 yoshdagi- shaxslar ishlarni bajarish bilan bog'liq faoliyat iolib borishlari mumkin va xuddi va qonunda berilgan shakl asosida.

Quyidagilar kasanachilikni rivojlantirishning asosiy vazifalari deb xisoblansin.

- Mehnat qonunchiligini takomillashtirish,kasanachilik ijtimoiy ximoyasini ta'minlashni inobatga olgan xolda axolini uy mehnati faoliyatiga keng jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish.

- Sanoat korxonalari bilan ularning buyurtmalari asosida uyda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish,birinchi navbatida,sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish imkoniyatini beradigan tikuvchilik,attorlik,ipakchilik,qayta ishlash,mebel,shuningdek ,telekominikatsiya servis va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida kasanachilik bilan shug'ullanayotganlar fuqarolar o'rtasida kooperesiyan rivojlantirish;

- Korxonalarining buyurtmalari asosida uyda ishlayotgan fuqarolarga buyurtmachilar tomonidan xomashyo, materiallar va yarim fabrikatlarni yetkazib berish,xamda buyurtma asosida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotishni kafolatlashda barqaror sharoitlar yaratish.

Ma'lumki qishloq joylarida,kam ta'minlangan,ijtimoiy ximoyaga muxtoj oilalarni ish bilan ta'minlash davlatimiz tomonidan olib borilayotgan isloxotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.Qabul qilingan ikki xujjatga xam ana shu jixatlar o'z aksini topgan.Boshqacha aytganda mehnatning bu turi qishloq joylarida ayollar,shuningdek, Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonunnig 70moddasida ko'rsatilgan fuqarolar toifalari,ya'ni ijtimoiy ximoyaga muhtoj,ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar,shu jumladan,14 yoshga to'lmagan va nogiron bolalari bor yolg'iz ota, yolg'iz onalar,ta'lim muassasalarini ta'minlagan yoshlar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlardan,ichki ishlar vazirligi,milliy xavfsizlik xizmati,fafqulotta vaziyatlar vazirligi qo'shinlaridan bo'shatilganlar, nogironlar va pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar,jazoni jazo ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tortilgan shaxslar uchun ustuvor tartibda tashkil etiladi.

2006 yil 5 yanvarda RF – 3706 – YUN farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida kasanachilikni tashkil etishni ko'rib chiqamiz.

Umumiy qoidalari:

1. mazkur nizom maqsadlari uchun “kasanachilik” tushunchasi tuzilgan mehnat shatnomasiga muvofiq jismoniy shaxs kasanachining yashash joyi bo'yicha yoki uning oila a'zolariga tegishli bo'lgan boshqa binolarda ish beruvchining buyutmakari bo'yicha kasanachi tomonidan amalga oshirilayotgan ishni anglatadi.
2. Kasanachi – 16 yoshdan va undan katta yoshdagi jismoniy shaxs.
3. Ish beruvchi kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq kasanachi uchun ishlab chiqarish binosini belgilaydigan, uni sabob – uskunalar, jihozlar, materiallar, butlovchi buymlar, hom ashyo va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlaydigan, bajarilgan ishni qabul qilib oladigan yuridik shaxs.
4. Kasanachilikni tashkil etishda agar mehnat shatnomasiga muvofiq kasanachilikni bajarish uchun kasanachi o'z yashash joyida zarur binolarga, shu jumladan turar joy binosiga, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, yohud malakaga o'qitilishi sharti bilan yo'l qo'yiladi.
5. Kasanachilik texnologiya jarayoni va boshqa shart – sharoitlar uy sharoitlarida butlovchi buyumlar, yarim tayyor mahsulotlar va mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish imkonini beradigan sanoat tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarida korxonalar bilan korxonalarning buyrtmalari bo'yicha uyda mahsulotlar ishlab chiqarayotgan va xizmat ko'rsatayotgan fuqarolar o'rtasidagi kooperatsiya asosida tashkil etiladi.
6. Yong'in xavfsizligining belgilangan qoidalariga, sanitariya va gigiyena normalariga mehnatchi, shuningdek, muhofaza qilish qoidalariga, kasanachilarning ayrim turlariga yung'in va sanitariya inspeksiyaasidan, shuningdek Davlat mehnat texnik inspeksiyaasi organlariningruxsati bilan yo' qo'yilishi mumkin.
7. Kasanachilik tomonidan ishlarni bajarish kasanachi oilasining a'zolari ishtirokida ish beruvchining roziligisiz amalga oshirilishi mumkin. Bunda kasanachi unga yordam beradigan oila a'zolari tomonidan bajariladigan ishlar sifati uchun ish beruvchi oldida javob beradi.

Kasanachiga yordam beradigan uning oila a'zolariga mazkur nizomning amal qilishi tadbiiq etilmaydi, basharti ular alohida mehnat shartnomasi tuzmagan bo'lsa.

1.2. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi hissasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- oilalar moddiy farovonligini ta'minlashdagi hissassi;
- oila a'zolarining o'z – o'zini ish bilan band qila olishdagi hissassi;
- Yalpi ichki mahsulotda, kasanachilikning sanoatda, qishloq xo'jalik mahsuloti hajmida, qurilish ishlari, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida hissassi.

Oilada tadbirkorlikni qaror topishi, birinchidan, mamalakatimizda juda ko'p ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni hal etish, eng avvalo u bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan o'rta va kichik mulkdorlar sinfini barpo qilish asosidir. Ikkinchidan, u mamalakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkonini yaratadi. Uchunchidan, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini qisqartiradiva uning faol qismini ishlab chiqarishga jalb etish imkonini beradi. To'rtinchidan, eng muhim bo'lgan muammo yani oila daromadlarini oshirishda asosiy manbaga aylanadi. Shu tufayli oilaviy tadbirkorlikni hozirgi zamon darajasida rivojlantirish, yuksak saviyada raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish holatiga kelnirishga erishish lozim. Bu esa odamlardan doimiy izlanuvchanlikni, tashabbuskorlikni, yani ixtirolar kashf etishni talab qiladi. Bu yam mamlakatimizda ortiqcha sarmoya talab qilmaydigan omillarning , ayniqsa inson omilini ishga tushishi uchun asos bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, korxonalar uyda ishlaydigan kasanchilar bilan mehnat shartnomasi tuzadilar. Bunday shartnoma asosida ishlayotgan fuqarolar band aholi toifasiga kiradi va ularga mehnat daftarchasi beriladi. Kasanachilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan aholiga nafaqa va ijtimoiy sug'urta bo'yicha tayinlashda ularning ishlagan vaqti mehnat stajiga kiritiladi. Bulardan tashqari, uy xo'jaligida yaratilgan mahsulot mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti tarkibiga kiritiladigan va statistik hisobotlarda qayd etiladi.

Faraz qilaylik mamlakatimiz miqyosida bir yilda bir million kishi kasanachilik bilan shug'ullanish uchun shartnoma tuzib mehnat qildi. Ular o'rta hisobda bir yilda 2,0 million so'mlik mahsulot ishlab chiqaradi. Kasanachilik natijasida ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati mamlakatimizda 2,0 milliard so'mni (1,0 million kishi x 2,0 million so'm) tashkil qiladi.

Bu mazkur kasanachilik bilan shug'ullanadigan oilalarning har biriga qo'shimcha daromad deganidir. Ko'rinib turibdiki, kasanachilikda yaratilgan mahsulotning 30 foizi davlan byudjetiga soliqlar orqali tushadigan bo'lsa, byudjetga yana qo'shimcha 600,0 million so'm deganidir. Kasanachilik nafaqat kasanachi uchun, balki davlat uchun ham, jamiyat uchun ham katta manfaat keltiradigan yo'nalishlardan biri ekan. Chunki kasanachilik natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bozorimiz to'yinadi. Tshqaridan tovarlar keltirish kamayadi, tashqariga novar xarid qilish uchun ketayotgan valyutamiz tejaladi.

Kasanachilikni davom ettirish bilan bog'liq barcha harajatlar uchun ish beruvchi qo'shimca tarzda kompensatsiya ham to'laydi.

Kasanachi bilan mehnat shartnomasi tuzish tartibi:

- 1.Korxonalar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga ega bo'lgan kasanachilar ish bilan band bo'lgan aholi toifasiga kiritiladi va mehnat daftarchasi beriladi;
- 2.Ish beruvchi korxona rahbari kasanachi bilan yozma shakilda mehnat shartnomasi tuzadi;

3. Bajarilayotgan ishning xususiyati va uni bajarish shart – sharoitlari hisobga olingan holda kasanachi bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishga yo'l qo'yiladi;
4. Kasanachi ishga qabul qilishda va u bilan mehnat shartnomasi tuzishda talab qilinadigan hujjatlar ro'yxati mehnat kodeksining 80 – moddasiga muvofiq belgilanadi;
5. Kasanachining mehnat daftarchasi ish beruvchi tomonidan yuritiladi. Ish beruvchi ishi to'xtatilganida daftarcha kasanachiga berilishi shart;
6. Kasanachi bilan mehnat shartnomasi mehnat kodeksining 97 – 103 moddalariga muvofiq holatdan boshqacha tarzda t'xtatilishi mumkin emas;
7. Korxonaning jamoa shartnomasi shartlari kasanachilarga nadbiiq etiladi, basharti ushbu korxonada jamoa shartnomasi tuzilgan bo'lsa.

Kasanachilik bilan mehnat shartnomasi tuzib ishlayotgan korxonalar zimmasiga zarur uskunalar yetkazib berish, ularga texnik xizmatlar tizimini tashkil qilish, asboblari, jihozlar, materiallar va yarim fabrikatlar bilan ta'minlash, shuningdek, kasanachilarni majburiy tarzda texnika xavfsizligiga o'qitish, buyurtmachi talab qiladigan sifat standartlari asosida ishlab chiqarilgan maxsulotlarni tashib ketish, bajarilgan ish uchun hisob – kitob qilish ham korxonalar zimmasiga yuklatilgan. Bunday tadbirlar kasanachilik bilan shug'ullanadigan aholiga katta qulayliklar yaratadi.

Korxonalar ushbu farmon bilan o'z kasanachilariga maxsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etish uchun asbob – uskuna, jihozlar va inventarlarni tekin yoki ijara sharti bilan berish huquqiga ega bo'ldi. Bulardan tashqari, korxonalar o'z kasanachilariga tegishli jihozlarni lizing asosida ham taqdim etish huquqiga ega.

Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlayotgan korxonalarga kasanachilar tomonidan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning qaytarilishi ulgurji savdo hisoblanmaydi va litsenziyalanmaydi. Bu korxona xodimlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot singari tayyor maxsulot sifatida rasmiylashtiriladi.

Kasanachilar tomonidan shartnoma asosida uyda ishlab chiqarilgan mahsulotni korxonaga topshirguncha, uning sifati uchun kasanachilar mas'ul. Korxonalar ushbu maxsulotlarni qabul qilib olgandan keyin oxirgi iste'molchiga sotishda mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar. Bunday tadbir uy xo'jaligida ham maxsulotni ishlab chiqarishda, ish bajarish va xizmat ko'rsatishda sifatga katta ahamiyat berish lozimligini kishilar ongiga singdiradi.

Ta'kidlash joizki, ilgari ham oila tadbirkorligiga mos keladigan yakka tadbirkorlik mavjud edi. Lekin, kasanachilik yakka tadbirkorlikka nisbatan ancha qulayliklarga ega. Bu qulayliklar nimalardan iborat degan savolning tug'ulishi tabiiy, bu, bizning fikrimizcha quyidagilardan iborat:

Birinchidan, yakka tadbirkor o'z faoliyatini boshlashi uchun mahalliy hokimiyatdan ro'yxatdan o'tishi shart, kasanachilar uchun esa faqat ish beruvchi bilan shartnoma tuzsa etarlidir;

Ikkinchidan, yakka tadbirkor o'z faoliyatini yuritish uchun belgilangan tartibda, belgilangan ish bilan faqat o'zigina shug'ullanishga haqli hisoblanadi.

Kasanachilikda esa, shartnomada ko'zda tutilgan faoliyatni bajarishda oila a'zolarini ham jakb qilishi mumkin;

Uchunchidan, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan o'z uyida shug'ullansa, u yashab turgan uyini yashash uchun mo'ljallanmagan joy maqomiga o'tkazishi shart, kasanachilikda esa, yashab turgan joy maqomida qoladi;

To'rtinchidan, yakka tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini natijasida qat'iy belgilangan soliqlarni to'laydi. Bunday soliqlardan kasanachilar ozod bo'lib, ushbu vazifani ish beruvchilar bajaradi;

Beshinchidan, yakka tartibdagi tadbirkorlikni nazorat qiluvchi organlar tomonidan qonunda belgilangan tartibda va vaqtda tekshirib turiladi. Kasanachilikda esa, ularning faoliyati ham nazorat qiluvchi organlar tomonidantekshirilishi mumkin;

Oltinchidan, yakka tartibdagi tadbirkor zarur dastgohlar, jixozlar, inventarlar, xom ashyo va materiallarni o'zlari topadi. Kasanachilar esa, bunday zarur dastgohlar, jihozlar, inventarlar, xom ashyo va materiallarni ish beruvchi korxona yetkazib beradi.

Bundan buyon, korxonalarda kasanachilik mehnati bilan band xodimlar soni statistik hisobotlarda ko'rsatilib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga binoan Respublika davlat statistika qo'mitasi korxonalarning statistik hisobotlariga aynan kasanachilik bilan shug'ullanadigan xodimlarni ifodalaydiganko'rsatgichlarni kiritishi ko'zda tutilgan.

Kasanachilikni joylarda tashkil qilish va rivojlantirish bo'yicha har bir viloyat, tuman va shharlarda hududiy komissiyalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ushbu komissiya sanoat korxonalari bilan kasanachilar o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, korxonalarning buyutmalari bo'yicha uyda ishlaydigan fuqarolarni asbob – uskunalar, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar bilan ta'minlash uchun barqaror shart – sharoitlar yaratib beradilar, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni topshirish va uning uchun o'z vaqtida haq to'lash masalalarini o'z vaqtida va joyida hal qiladilar/

Ushbu farmon bilan kasanachilikni tashkil qilgan korxonalarga va kasanachilik bilan shug'ullanadigan aholiga bir qancha imtiyozlar berilgan, jumladan:

- tovarlar ishlab chiqarish bo'yicha kasanachilarga buyurtma beradigan korxonalar 2006 yilning 1 fevralidan boshlab 5 yil muddatga, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga teng miqdorda, mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashi shart emas, to'lsdan ozod qilinadi;
- agar korxonalar kasanachilarga buyrtma beradigan ishlab chiqarish va ish uchun shartnoma asosida asbob – uskunalar va jixozlarni tekin foydalanish uchun bergan bo'lsa, foydalanish davrida ular ushbu jihozlar uchun mulk solig]dan ozod qilinadi;
- kasanachilar tomonidan buyrtmachi korxonalarning ishlab chiqarish texnplogiyasiga to'liq amal qilgan taqdirda uy sharoitida ishlab chiqarilgan maxsulotlar va xizmatlarni qo'shimcha sertifikatlash va standartlash talab etilmaydi;

- Kasanachilik faoliyati alohida tekshirilmaydi. Ularning faoliyati buyurtmachi – korxona qonunchilikda belgilangan tartibda tekshirilgandagina nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilishi mumkin. Bunday holat nafaqat korxonalar, balki kasanachilik bilan shug'ullangan aholining ham iqtisodiy erkinligini ta'minlash imkonini beradi;
- Kasanachilik mehnati bilan shug'ullanadigan shaxslar mehnat shartnomasi bo'yicha, qat'iy ravishda, o'lchov asboblari ko'rsatgichlari asosida haq to'laydilar.

Kasanachi har yili mehnat ta'tilini olishga haqlidir. Uning muddati 15 kundan kam bo'lmasligi lozim. Mehnat ta'tilini berish vaqti va navbati kasanachi bilan kelishilgan holda ish beruvchi tomonidan jadval asosida amalga oshiriladi.

Korxona bilan kasanachilar o'rtasidagi munosabatlar “Kasanachilik to'g'risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek ushbu nizom 2006 yilning 11 yanvaridagi Vazirlar Mahkamasining 4-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu nizomda kasanachilar bilan mehnat shartnomasini tuzish tartibi, ularga asbob – uskunalar, Jixozlar, xom – ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar berish tartibi, maxsulotlarni olib ketish hamda bajarilgan ishlar uchun hisob – kitob qilish kafolatlari va texnik xizmatlar ko'rsatish tizimini tashkil etish, kasanachilar xarajatlarini qoplash tartibi, ularni himoya qilish mexanizmlari, tomonlarning o'zaro javobgarligi kabi masalalar ko'zda tutilgan. Ushbu nizomda kasanachining mehnatiga haq to'lash shartlari, kasanachining ish vaqti, dam olish va ta'til muddati, kasanachilar va ijtimoiy sug'urta qilish va ijtimoiy muhofaza qilish kasanachilarning mehnat xavfsizligi kabi muhim masalalar ham nizomda qat'iy belgilanib o'z ifodasini topgan. Kasanachining mehnatiga haq to'lash shartlari”

1. Kasanachilar ishiga, qoidaga ko'ra, ishbay haq bo'lanadi. Haq to'lash amalda bajarilgan ishlar uchun yoki sifati bo'yicha belgilangan talablarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarilgani uchun amalga oshiriladi;
2. Unumdorlik normalari va ishbay narxlar tomonlarning kelishuviga ko'ra, tegishli ishlar uchun mehnat to'g'risidagi Qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normal ish vaqti hisobidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
3. Ishbay haq to'lanadigan aniq ish uchun kasanachining ish haqqi miqdori ish beruvchining o'z ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar mehnatiga haq to'lash shartlari kabi bo'lishi kerak;
4. Kasanachining ish haqi, uning tomonidan mehnat normalari va mehnat majbutiyatlari bajarilgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lishi mumkin emas, biror bir eng yuqori miqdori bilan cheklanmaydi;
5. Kasanachining mehnatiga haq yoki har bir tugallangan ish topshirig'i, ishlar hajmi topshirilganda, yoki mehnat qonunchiligida belgilangan muntazam vaqt oralig'ida to'lanishi kerak. Mehnat shartnomasida kasanachi mehnatiga avanye tarzda haq to'lash nazarda tutilishi mumkin;

6 .Har kasanachi o'z mehnatini amalga oshiradigan joyga ish haqiga tuman koeffisiyentini hisobga olgan holda amalga oshirish kerak;

7 .Kasanachi ish vaqtini o'z xohishiga ko'ra taqsimlaydi, uning bajargan barcha ishi uchun bir hissa miqdorda haq to'lanadi va unga ish vaqtidan ortiqcha ishlaganlik , dam olish va bayram kunlariga ishlaganlik, shuningdek tungi vaqtda ishlaganlik uchun mehnatga haq to'lash shartlari tadbiq etilmaydi;

8 .Kasanachi mehnat shartnomasiga muvofiq quyidagilar uchun to'lov oladi:

Ish bilan bog'liq ravishda energiya, suv, aloqa, mashina va asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish hamda ularni ta'mirlash, transport xarajatlari uchun,

Kasanachining kasanachilik ishlari amalga oshiradigan xona uchun to'lov xarajatlari, shuningdek uy-joydan foydalanish xarajatlari qoplanmaydi;

9 .Ish beruvchi ro'yxatiga quyidagilar kiradi:

Ish topshirig'i bajarish uchun ajratilgan vaqt,

Mehnatga haq to'lash stavkalari va ish vaqtidagi chiqimlar jamg'armasi ajratmasi.

Kasanachiga asbob-uskunalar, jihozlar intentarlar, xom-ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlar berish tartibi mahsulotlarni olib ketish hamda bajarilgan ishlar uchun hisob-kitob qilish kafolatlari.

1.Ish beruvchi kasanachiga mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar inventar taqdim etadi.

Kasanachiga asbob-uskunalar, jihozlar, inventar yozma shaklda to'liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asisida beriladi.

2.Asbob-uskunalar, jihozlar, inventar ish beruvchi tomonidan kasanachiga tekin foydalanish uchun yoki ijara shartlarida, shu jumladan lizing shartlarida berilishi mumkin.

3.Kasanachiga asbob-uskunalar jihozlar, inventarni ijara shartlarida, shu jumladan lizing shartlarida berish O'zbekiston Respublikasining Fuqarilik kodeksida va "Lizing to'g'risidagi" qonunda belgilangan tartibda amalga oshiradi.

4 .Ish beruvchi mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlarni kasanachiga berish hamda yetkazib berishni ta'minlashi shart/

5.Kasanachi mehnat shartnomasiga muvofiq ishlarni bajarish uchun xom-ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlarni mustaqil ravishda sotib olishga haqli emas.

6 .Ish beruvchi kasanachiga ishlab chiqarilgan mahsulotlarning olib ketilshi uchun transport berishini kafolatlaydi.

7 .Buyurtmaga muvofiq bajarilgan mahsulotlarni topshirish- qabul qilish, qabul qilib olgandan keyin dalolatnomasi tuziladi, unga ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori, sifat standartlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq sifati ko'rsatiladi.

Uyda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifatining belgilangan standartlariga rioya etilishi uchun javobgarlik, ular sanoat korxonalariga qaytarilgan taqdirda, kasanachilarga yuklanadi, oxirgi iste'molchilarga sotilgan taqdirda esa sanoat korxonasiga, o'sha bosh tashkilotga javobgarlik yuklanadi.

Prezidentimiz farmoniga ko'ra, kasanachilikni rivojlantirish choralari belgilanganligi va undan aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish vositasi sifatida unumli foydalanish tadbirlari nazarda tutilgani ushbu sohaga doir huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish vazifasini kun tartibiga qo'yimoqda.

Kasanachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilovchi qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritilishi zarur. Jumladan, mehnat kodeksining 73-moddasidagi "ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi)" degan jumla "ish joyi (korxona yoki uning bo'linmasi yohid xodim yashab turgan xonadon)" degan yangi taxrir bilan almashtirilishi lozim. Bu qo'shimcha mehnat shartnomasining muhim shartlaridan bo'lgan ish joyi tushunchasini yangi talablarga moslashtirish imkonini beradi.

Mehnat kodeksining ishga qabul qilish vaqtida talab etiladigan hujjatlar ro'yxatini belgilab beruvchi 80-moddasi 1-qismi "Kasanachilik asosida ishga qabul qilinayotgan shaxsning voyaga yetgan, muammolarga layoqatli oila a'zolarining ish joyida bajarilishiga qarshi emasliklari haqidagi yozma roziligi" degan jumla bilan to'ldirilishi kerak. Chunki kasanachilik asosidagi mehnat jarayoni oilaning boshqa a'zolari huquq va manfaatlariga putur yetkazmasligi lozim.

Mehnat kodeksining 83-moddasida mehnat shartnomasida ishni boshlash kuni ko'rsatilmagan bo'lsa, xodim shartnoma imzolangan kunning ertasidan kechikmay imzolanganidan so'ng ishga tushishi nazarda olingan. Biroq kodeksning 82-moddasi mehnat shartnomasini rasmiylashtirish yuzasidan ish beruvchi zimmasiga unga munosib majburiyat yuklamaydi. Shu sababi, 82-moddaga tegishli qo'shimcha kiritish lozim, ya'ni mehnat kodeksining 82-moddasi 2-qismi "Ish beruvchi mehnat shartnomasi imzolangan kunning ertasidan kechikmay ishga qabul qilish haqida buyruq chiqaradi. Buyruq o'zaro tuzilgan mehnat shartnomasi mazmuniga to'liq muvofiq bo'lishi lozim," degan yangi tahrirda bayon etilmog'i kerak.

Mehnat kodeksining 120-moddasi quyidagi ko'rsatilgan tahrirdagi yangi qismlar bilan to'ldirilishi lozim.

"Kasanachi xodimning ish vaqti soatlari oila a'zolari va qo'shnilari bilan kelishib olingani holda erkin belgilanadi, ammo ish vaqtining haftalik muddati 40 soatdan yohud qonun hujjatlaridan belgilangan ish vaqtining boshqa eng ko'p muddatidan oshmasligi kerak."

Korxonaga qatnab ishlovchi xodimning qo'shimcha ravishda ushbu korxonada kasanachilik asosida ishlashga yo'l qo'yilmaydi.

Tegishli tarzda ushbu modda qo'shimchalar 2 va 3-qism. Deb belgilanish kerak. O'z uyida ishlovchi kasanachilarga mazkur kodeksning dam olish vaqtiga od qoidalari tadbiq etiladi va ular dam olish vaqtini qonun talablariga ko'ra o'zlari mustaqil belgilaydi. Barcha xodimlarga, shu jumladan kasanachi va o'rindoshlik asosida ishlayotgan xodimlarga, dam olish va ish qobiliyatlarini tiklashlari uchun ish joyi va o'rtacha ish saqlangan holda yillik mehnat ta'tili beriladi. Yillik mehnat ta'tili vaqtida kasanachi xodimga ishlab chiqarish topshirig'i berilmaydi.

Mehnat kodeksining 170-moddasi quyidagi tahrirdagi yangi 2-qism bilan to'ldirilishi kera. "Kasanachi xodimning o'z uyida mehnat shartnomasi asosida mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar taraflarning o'zaro

kelishuvi asosida hamda tegishli to'lovlar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatga binoan ish beruvchi tomonidan qoplanadi.

Ish beruvchi tegishli hollarda asbob-uskuna va jihozlar turli xom-ashyolar, materiallar sotib olish, binoni ishlab chiqarish uchub moslashtirib jihozlash, transport tashish xarajatlarini handa bajarilayotgan ishning xususiyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarni ham belgilangan tartibda xodimga qoplab berishi shart. Ushbu qo'shimcha xodimning ish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlari ish beruvchi tomonidan to'lab berilishi kafolatlanishi ko'zda tutadi.

Mehnat kodeksining 176-moddasi quyidagi mazmunda yangi 3-qism bilan to'ldirilishi lozim. "Kasanachi xodimlarning o'ziga xos mehnat burchlari ish beruvchi bilan ular o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida, korxonaning ichki mehnat tartibi qoidalarida korxona jamoa shartnomasi hamda boshqa lokal normativ hujjatlarda belgilab qo'yiladi.

Kasanachi xodim va uning oila a'zolari o'z uyida mehnat vazifasini bajarish chog'ida jarohat olishlari, vafot etishlari, kasb kasalliklariga chalininshlari tufayli ularga yetkazilgan zarar ish beruvchi tomonidan hujjatlariga muvofiq qoplanadi.

Kasanachi tomonidan uyda mehnat faoliyatning olib borilishi, qo'ni0qo'shnilar, mahalla a'zolari turmush sharoitiga jiddiy halol berayotgan va bu haqda mahalla qo'mitasi qarori chiqarilishi orqali ish beruvchiga ma'lum qilingan taqdirda-deua ko'rsatilishi kerak. Bu yangi norma, Ya'ni haq huqularini himoyalashini kafolatlaydi.

1.3 Ishsizlikni kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishda kasanachilikning dolzarbligi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta'minlash orqali ijtimoiy himoyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Aholining tarkibida yoshlar salmog'i kattaligi ish bilan ta'minlashda izchil, chuqur o'ylangan siyosat yuritishni taqazo etadi.

Mamlakatimizda ana shunday ijtimoiy siyosat ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirib kelinmoqda.

Ijtimoiy hisobotlar natijasiga ko'ra, o'tgan yili aholining ish bilan bandligi 2,8 %ga, shu jumladan, sanoatda 9 % ga oshgan. Qishloq xo'jaligida band bo'lganlar soni esa 4%ga kamaygan. Kichik va xususiy tadbirkorlik sohasida ish 2011-yil 390 ming ta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan.

Biroq shunga qaramay aholini ish bilan ta'minlashda muayyn muammolar yo'q emas. Mamlakatimizda 300 ming nafar fuqaro vaqtinchalik ish bilan band bo'lgani holda. 560 ming kishida yoki mehnatga layoqatli aholining 5% da ishga joylashish ehtiyoji mavjud.

Qisqaloq joylarida, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ishsizlik ko'rsatkichi ancha yuqori. Shu bois, hukumatimiz tomonidan fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha barcha chora-tadbirlar qo'llanayapti. Aholining bandligining yangi shakllari topilib, hayotga tatbiq etilyapti. Bu borada, joylarda kasanachilikni rivojlantirish bo'yicha qilinayotgan ishlar diqqatga sazovordir.

Prezidentimizning 2006-yil 5-yanvarda "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni e'lon qilingach, bu sohada jiddiy kirishilgan. Aholining kam ta'minlangan qismi, birinchi navbatda uy bekalar, nogironlar, ko'p bolali oila a'zolari ishlab chiqarishga jalb etildi. Birgina o'tgan yili korxonalar bilan kooperatsiyalashuv negizida kasanachilik harakati rivojlantirilib, natijada 60 mingdan ziyod qo'shimcha ish joylari tashkil topdi. Korxonaga qatnab ishlash imkoniyati bo'lmagan fuqarolar uchun kasanachilikni yo'lga qo'yilgani ijtimoiy himoyalashning amaliy shakli sifatida namoyon bo'ldi.

Bir paytlar un, go'sht, sut, kartoshka va boshqa zarur mahsulotlar Rossiya, Belarusiya, Ukraina, Boltiq bo'yi respublikalaridan muzlatilgan holda keltirilgan edi. Shuncha masofadan bir necha kunga yetib kelgan mahsulotlar iste'molchilarga qo'lga tekkincha qadar sifatiga qanchalik putur yetishini tasavvur etish qiyinmas. Boz ustiga o'sha mahsulotlarni olishga fondlarni ko'paytirish uchun tag'in markazga bosh urib borishga, ularga yalinishga to'g'ri kelar edi.

Muhimi mustaqillik sharofati bilan bunday muammolar ijobiy hal etildi. Ayni vaqtda yurtimizda aholini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlash borasida Amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami juda keng. Ayniqsa, shaxsiy chorvachilikni rivojlantirish, qishloqlarda har bir xonadonni qoramol bilan ta'minlashga qaratilgan say-harakatlar kimni quvontirmaydi deysiz! E'tiborli jihati shundaki, Prezidentimiz qarori bilan xonadoniga chorva mahsulotlarini yetishtiradigan va iste'molchilarga yetkazib beradigan uy-bekalariga mehnat daftarchasi ochib, ularning ish stajiga ega bo'lishi, kelgusida nafaqaga chiqishida qulaylik tug'dirish hamda qishloq aholini ijtimoiy himoyalash kabi muammolat o'z yechimini topdi. Bundan tashqari ayollarimiz tikuvchilik, zardo'zlik, patdo'zlik, ishlari bilan ham o'z ehtiyojlarini qondirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-apreldagi PK-616-sonli "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra maxsus davlat dasturining qabul qilinishi fuqarolarning ish bilan ta'minlash, hukumatimiz diqqat markazida turganining dalilidir. Mazkur Dasturga ko'ra, turli

imkoniyat va vositalar ishga solingani holda har yili 550 ming ta qo'shimcha ish o'rinlari belgilangan tartibda barpo etish vazifasini hamda bu vazifani amalga oshirish yuzasidan zarur tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy tadbirlar ishlab chiqilgan.

2 bob. Mamlakatni modernizatsiya qilish davrida kasanachilikni rivojlantirish bo'yiga Respublikamizda olib borilayotgan chora – tadbirlar, erishilayotgan yutuqlar va ularni dars jarayonida o'rganish.

2.1. Kasanachilik sohasi oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai sifatida

2.1. Kasanachilik sohasi oila byudjeti daromadlarini oshirishning qo'shimcha manbai sifatida.

Ish haqi va aholining real daromadlarining ahamiyatli darajada o'sishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishi bilan bir qatorda tashqi savdo va eksport sohasidagi faoliyatning samaradorligiga ham bog'liq. Aholining real daromadlari 2011 yil davomida 26,5%ga ko'paygani, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'shishi 2011-yilda o'rta hisobda 40%ni tashkil etgani buning tasdig'idir.

So'ngi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur'atda o'sib bormoqda. Jumladan, 2009-yilda 2000-yilga nisbatan o'rtacha haqi 28,5 barobar, pensiyalarning o'rtacha miqdori qariyb, 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

2012-yilda ham ish haqini kamida 30 %ga, real daromadlarni esa 23 %ga oshirish mo'ljallanmoqda. Aholining uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan sanoat tovarlarni xarid qilish bo'yicha xarajatlari sezilarli darajada o'sdi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turuni kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Mazkur masalani xalq etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatlaridan yanada samarali foydalanish zarur bo'ladi.

Aholi turmush darajasiga uning pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi hamda ular o'rtasidagi nisbat ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Umumiy holda aholi pul sarf-xarajatlari va jamg'armalari tarkibi tovar sotib olish va xizmatlarga to'lovlar, omonatlar, qimmatli qog'ozlar, qat'iy valyuta xarid qilish va boshqa sarf-xarajatlardan iborat bo'ladi,

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada taraqqiy ettirish uchun imtiyozlar, yengilliklar va shart-sharoitlar yetarlicha yaratib berilishi natijasida respublikada ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi o'tgan yilga nisbatan 116%ga o'sdi.

Mazkur ko'rsatkichlarga erishishda hududlarda yangi xizmat ko'rsatish shahobchalari ish ko'rib, ishga tushirilishi asosiy omil vazifasini bajardi. Natijada 2011-yilda rejadagi 4,3 mingta o'rniga jami 8,1 mingta yaqin xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil etildi. Jumladan, 2,9 mingta savdo shahobchalari, 706 ta umumiy ovqatlanish korxonalari, 943 ta sartaroshxona, 1166 ta kiyim tikish va ta'mirlash hamda poyafzal tikish va ta'mirlash ustaxonalari, 307 ta suratxona, 103 ta hammom, 1,8 mingdan ortiq boshqa ob'yektlar tashkil qilindi.

Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis ob'yektlarining kurib, foydalanishga topshirilishi natijasida jami 244,5 mingta yangi ish o'rinlari barpo etildi. Yaratilgan yangi ish o'rinlarining 180,7 mingtasi (73,9%) aynan qishloq joylar ulushiga to'g'ri keladi. Umuman olganda, hududlarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'yektlarining ko'rib, ishga tushirilishi natijasida, respublika bo'yicha qo'shimcha 1,3 mln. nafar aholining yoki 268,4 mingga oilaning turmush darajasi yaxshilanib, zarur hayotiy va ijtimoiy-maishiy ehtiyojlarga bo'lgan talabini qondirishga erishildi.

2011-yilda inqirozga qarshi choralar dasturi doirasuda amalga oshirilgan chora-tadbirlar samaradorligi yangi ish o'rinlarini yaratish va aholimizning turmush darajasini yanada oshirish natijalari orqali ham yaqol amoyon bo'ladi/

O'zbekistonda 2011-yilda aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishning ijrosi.

Ko'rsatkichlar	Soni, birlik
Dastur bo'yicha yaratilishi ko'zga tutilgan jami ish o'rinlar soni	932554
Amalda yaratilgan jami ish o'rinlari	950532
Yillik prognozga nisbatan bajarilishi, % da	100,9
Jumladan:	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga	391825
Uy mehnatining barcha shakllarini tashkil etish hisobiga	196727
Korxonalar bilan mehnat shartnomasi asosida kasanachilikni rivojlantirish hisobiga	77566
Yirik ob'yektlarni ishga tushirish, rekonstruksiya qilish va kengaytirish	70535
Qo'shimcha tadbirlar hisobiga (inqirozga qarshi dastur va boshqa tadbirlarga muvofiq	281445

Jadval ma'lumotlarida ko'rinadiki, 2011-yilda ko'rilgan amaliy choralar natijasida mamlakatimizda 944 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarfa tashkil etildi. Kichik biznes sohasida 490 mingdan ziyod, shu jumladan, xizmat ko'rsatish sohasida 270 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari ochildi.

Sanoat korxonalari bilan kooperasiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasiasosidagi uy mehnatini rahbatlantirish aholi bandligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biridir. Kasanachilik faoliyatining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, uning samarali amal qilishi uchun mazkur faoliyat iqtisodiy tabiatidan kelib chiquvchi asosiy tamoyillari belgilab olish muhim xisoblanadi.

Kasanachilik- yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.

Kooperativ aloqalari - turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

Kasanachilik faoliyatidagi vaqtdan unumli foydalanish imkoniyati, yani ishchining uyda o'zi istagan vaqtda ishlashi mumukinligi, ishxonaga dorish – kelish uchun ketedigan vaqt va xarajatni tejashi; uydagi qo'shimcha ishchi kuchi imkoniyatlaridan foydalana olishi; ayni paytda uy – ro'zg'or ishlarini nazoran qilib turishi kabi jihatlar mehnatni tashkil etishning mazkur shakliga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Kasanachilik faoliyati amal qilishining asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Tomonlar (ish beruvchi va ishchi)ning o'aro faoliyatidagi ixtoyoriylik;
2. Tomonlarning mazkur faoliyat yuzasidan tuziluvchi mehnat shartnomasidan o'zaro manfaatdorligi;
3. Kasanachilik faoliyatining har ikkala tomon uchun ham kelgusidagi rivojlanish uchun imkoniyat yaratishi;
4. Kasanachilik faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligi;
5. Kasanachilikni tashkil etishda mehnat faoliyati xususiyatlarining hisobga olinishi.

Kasanachilikning aholi bandligini oshirish hamda daromadlarini ko'paytirishdagi mavjud imkoniyatlaridan to'laroq foydalanish maqsadida 2006 yil 5 yanvarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida kasanachilik faoliyatini tashkil etishda quyidagi imtiyozlar belgilanishi ko'rsatib o'tilgan:

- kasanachilik faoliyatini tashkil etuvchi korxonalarining besh yil muddatga, kasanachilarga to'lanadigan mablag'larga teng miqdorda mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovni to'lashdan ozod etilishi;
- ish beruvchiga kasanachilarga asbob – uskuna, jihozlar va inventarlarni tekin yoki ijara sharti bilan berish, jumladan, lizing (moliyaviy ijara) asosida taqdim etish huquqining berilishi;
- kasanachilarga korxona buyurtmasi bo'yicha ishlarni bajarish uchun tekin foydalanishga berilgan asbob – uskuna, jihozlar va inventarlarning ulardan foydalanish davrida mulk solig'idan ozod etilishi va h.k.

Sanoat korxonalari bilan kooperatsiya asosidagi kasanachilikni hamda pudrat shartnomasi asosidagi uy mehnati faoliyatini rivojlantirish natijasida 2010 yilda 140 mingga yaqin ish o'rni yaratildi.

Bandlik darajasini oshirishga qaratilgan bunday chora – tadbirlar inqiroz sharoitida aholini ishonchli himoya qilish, uning daromadi va moddiy farovonligini oshirish imkonini ta'minladi.

Aholining real daromadlari yil davomida 28,5 foizga ko'paygan, ish haqi, pensiya va nafaqalarning o'sishi 2010 yilda o'rta hisobda 40 foizni tashkil etgani buning tasdig'idir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar, amalga oshirilgan natijalarni ifodalovchi ko'rsatgichlarning barchasi o'tgan yilda ham mamlakatimizda ijtimoiy sohani yangi bosqichga ko'tarish borasida salmoqli yutuqlarga erishilganidan darak beradi.

Hurmatli Prezidentimiz I. A. Karimov 2012 yil 19 yanvar kuni 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisida so'zlagan nutqlarida oilaviy tadbirkorlik va oilalarning farivonligiga alohida e'tibor berib quyidagi so'zlarni aytdilar: "2012 yilni yurtimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qildik. Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan

ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, bu borada mahallaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, xotin – qizlar, opa – singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, jismonan sog'lom, ma'nan etuk va barkamol avlodni tarbiyalash kabi o'z oldimizga qo'ygan boshqa muhim maqsadlar barchamizga yaxshi ma'lum. Bu o'rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda. Shu kunlarda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish va xayotga joriy etish bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish ishlari nihoyasiga etkazilmoqda. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, mazkur dasturni amalga oshirish uchun 2012 yilda moliyalashning barcha manbalari hisobidan qariyb 4 trillion 400 milliard so'm va 370 million dollardan ortiq mablag' yo'naltirilishi rejalashtirilmoqda. Bu mablag'ning 60 foizga yaqinini davlat mablag'lari, 25 foizini tijorat banklari kreditlari, qariyb 15 foizini mas'ul ijrochilarning o'z mablag'lari hamda 360 million dollardan ortig'ini xalqaro institutlar va donor mamlakatlar mablag'lari tashkil etadi. Hech shubhasiz, bunday keng ko'lamda ajratilayotgan mablag'lar avvalo shu sahovatli O'zbekiston zaminida yashayotgan har qaysi oilaga ko'rsatilayotgan katta e'tibor va g'amho'rlik, ko'mak va yordam belgisi va timsoli, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz". ("Qishloq xayoti" gazetasi, 20 yanvar 2012 yil, 9 – 10 (79 – 39) – son).

2.2. Kasanachilik – ish bilan bandlikdagi yangicha yo'nalish va ichki manbalarni safarbar etish.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishda kasanachilikni rag'batlantirish va qullab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishda aholining ish bilan bandligi, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishda kasanachilikning o'zni beqiyosdir. Kasanachilik deganda, o'z uyida kimningdir buyurtmasiga asosan, shartnoma tuzib, biror bir mahsulot turini tayyorlab beruvchi 16 va undan katta yoshdagi jismoniy shahslarning o'z- o'zini ish bilan ta'minlashi tushuniladi. Agar kasanachi bilan korxona o'rtasidagi munosabatlar moddiy javobgarlik

bilan bog'lik bo'lsa, 18 yoshdan boshlab kasanachi bo'lish mumkin. Kasanachilik asosan mahsulot tayyorlovchining o'z uyi sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishidan iboratdir. Demak, kasanachilik deganda, ish beruvchining buyurtmasiga binoan shartnoma asosida mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishni o'z xo'jaligida tashkil qilish bilan bog'lik faoliyat tushuniladi. Kasanachilik kasanachi bilan ish beruvchi o'rtasidagi munosabatga asoslanadi, ish beruvchi kasanachi bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga muvofiq, kasanachini asbob-uskunalar, jihozlar, materiallar, xom -ashyo va boshka ishlab chikarish vositalari bilan ta'minlaydigan, bajarilgan ishni qabul kilib oladigan va unga haq tulaydigan yuridik shaxsdir. Kasanachilikni yo'lga qo'yish uy xo'jaligining, oilaviy tadbirkorlikning takomillashuviga, pirovardida oila farovonligini oshirishga olib keladigan muhim tadbirlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda ishsizlikning oldini olish, mehnatga qobiliyatli aholini ish bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadida keskin tadbiriy choralar qo'rilmoqda. Bunga yurtimiz Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda « Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora – tadbirlari tugrisidagi» PF – 37.06 sonli Farmonini kiritish mumkin. 2006 yil 11 yanvarda Vazirlar Mahkamasining mazkur Farmonni amalga oshirish choralariga bag'ishlangan 4 – sonli qarori vash u karor yuzasidan « Kasanachilik tugrisidagi Nizom» qabul qilindi. Bundan tashkari inqirozga karshi choralar dasturida ham ichki manbalarni safarbar etish hisobidan kasanachilikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlarda ta'kidlanishicha, yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilik o'rtasida kooperasiya aloqalarining mustahkamlanishi oila byudjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo'lmagan aholi sonini keskin qisqartirish va faol qismini ishlab chikarishga jalb etish imkonini beradi. Ayni paytda kasanachilar ish stajini hisoblash ularga pensiya va ijtimoiy sugurta buyicha nafaqalar tayinlash huquqi ta'minlanadi. Kurinib turibdiki, kasanachilik bilan shugullanadigan aholi bevosita korxonalarda band bo'lgan aholi singari barcha huquqiy imtiyozlarga ega bo'ladilar.

Kasanachilikni rivojlantirishning muhim jihati shundaki, kishlok joylaridagi kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar ishli bulishadi. Boshkacha aytganda, mehnatning bu turi kishlok joylarida aellar, shuningdek, « Aholini ish bilan ta'minlash tugrisida «gi

konunning 7 – moddasida kursatilgan fukarolar toifalarini ham keng jalb etadi.

Kasanachilik orqali ishlab chikarish sohasida kiyimlar tikish, ularning alohida elementlarini ishlab chikarish, ta'mirlash, matolarni bo'yash, gilam to'qish, to'qimachilik (milliy matolarga iplar tayyorlash), poyafzal tikish (kosibchilik), ko'p mehnat talab qiladigan ko'maklashishi operasiyalarini (turlarga ajratish, tozalash, qadoqlash), elektrotehnika vositalarini ta'mirlash va boshqa turlarini ham amalga oshirish mumkin.

Xizmat ko'rsatish sohalarida esa, yozuv mashinkalarida terish xizmatlari (matn va maълumotlarni terish, matnlarni tahrirlash va o'g'irish), hisob fakturalarini tayyorlash, konvertlarni manzillashtirish va to'ldirish, pochta junatmalari hamda reklama tayyorlash, taomlar tayyorlash, chorvachilik, parrandachilik va hokazolar buyicha kasanachilik qo'llanilishi mumkin.

Kasanachilik bo'yicha yuqorida aytib o'tilgan Prezidentimiz Farmonlari va hukumatimiz qarorlari kasanachilar uchun talaygina huquqiy qulayliklar yaratib beradilar. Masalan, korxonalar bilan mehnat shartnomasi imzolangan kasanachilar, ishlayotgan aholi toifasiga kiradi, ya'ni mehnat daftarchasi beriladi. Kasanachilarga pensiyalar va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar tayinlash paytida ular ishlagan vaqt ish stajiga hisoblanadi. Yana bir muhim tomoni shundaki, kasanachilik faoliyati amalga oshirilayotgan turar joylarni yashash uchun muljallanmagan joylar toifasiga utkazish talab etilmasligi ham ularni ortiqcha rasmiylashtirish jarayonidan ozod etish, vaqtlarini tejash imkonini beradi. Shuningdek, bajarilayotgan buyurtma korxonaga qaytarilayotgan paytda mahsulotlar, ishlar yoki xizmatlar ulgurji savdo sifatida hisoblanmaydi, kasanachilardan ortiqcha litsenziyalar talab qilinmaydi, ular tomonidan ishlab chikarish texnologiyasiga to'lik amal qilingan takdirda, uy sharoitida ishlab chikarilgan mahsulotlar va xizmatlar qushimcha sertifikatlashtirish, standartlash talab etilmasligi ham kasanachi mablag'larini tejaydi.

Bizga ma'lumki, har bir faoliyat turidan qat'iy nazar, ular albatta nazorat qiluvchi tashkilotlar tomonidan tekshiriladi. Kasanachilarga bu borada ham erkinliklar berilgan. Ya'ni ularning faoliyati faqatgina buyurtmachi – korxona qonunchilikda urnatilgan tartibda nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshirilgandagina amalga oshiriladi.

Kasanachilik sohasida Buhoro viloyatida ham talaygina kilingan ishlar maktovga sazovordir. Buhoroda yakka tartibdagi mehnat

faoliyatiga asoslangan hunarmandchilik anchagina rivojlangan, ulardan kosibchilik, zargarlik, temirchilik, kashtachilik, duradgorlik, kandakorlik, tikuvchilik, patduzlik va h.k. sohalar. Lekin yirik ishlab chikaruvchi korxonalar bilan buyurtma asosidagi kasanachilikni, asosan, « Zarduz « aksionerlik jamiyati va kir yuvush kukuni ishlab chikaruvchi « Buhoro – Bahor» o'zbek – xitoy qo'shma korxonasi keng amalga oshirmokda, bu esa albatta hozirgi kunda yetarli emas.

Shuning uchun, bizning fikrimizcha, kasanachilikning rivojlanishiga:

- katta va o'rtacha korxonalar bilan kasanachilar o'rtasidagi aloqani shakllantirish;

- korxonalar bilan kasanachilarning faoliyatini jalb qilish maqsadida axborot va tashviqot ishlarini jadallashtirish vat ugri yo'lga qo'yish maksadga muvofik bular edi.

Viloyat aholisining asosiy qismi qishloqda yashashini inobatga olib, asosan qishlok joylarida kasanachilikni joriy qilish ayni muddao bular edi bu ishsizlik darajasini birmuncha pasayishiga olib kelar edi.

Eng muhimi, kasanachilikni rivojlantirish ajdodlarimizdan meros bulib kolgan hunarmandchilikning ko'pgina turlarini saklab qolish va milliy qadriyat va iftihorimiz sifatida kelajak avlodlarga yetkazib berish imkonini yaratib beradi.

2.3. Kasanachilik faoliyatining iqtisodiy ko'rsatgichlardagi ifodasi.

Iqtisodiyotning noishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lganlar sonining dinamikasi va uning tarmoqlari bo'yicha joylashtirilishidagi o'zgarishlar iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va xizmat ko'rsatish vaservis sohalari bo'yicha mazkur yilda qabul qilingan dasturini amalga oshirishning natijalari hisoblanadi

Joriy yilning 9 oyi davomida 445,5 ming ish o'rinlari yaratildiki, bu bandlikning hududiy dasturlarida nazarda tutilgan taxmin qilingan parametrlardan 17,2% ga ortiqdir. Ushbu davr mobaynida aholi bandligi ustuvor ravishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida ta'min etildiki, bu yerda yangi ish o'rinlarining umumiy miqdoridan 62,9% i shakllantirildi. Kasanachilik sohasida ishchi o'rinlari tashkil etish hisobidan bandlik o'smoqda.

Masalan, bandlik o'tgan yilning 9 oyi davomida 64,7 ming yangi ish o'rinlari (yangi tashkil etilganlarining umumiy miqdoridan 12,7%) yaratilgan bo'lsa, mazkur yilning ayni davrida 115,6 ming ish o'rinlari (26,8%) yaratildi.

Bu qadar jiddiy o'sish nafaqat kasanachilikning an'anaviy shakllarining rivojlantirish natijasida, balkiyirik sanoat korxonalari va xizmat ko'rsatish o'rtasidagi kooperasiya asosida uyda yangi ish o'rinlarini yaratish hisobidan ham ta'minlandi. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida respublikada 41,6 ming ishchi o'rinlari, bu ularning kasanachilik sohasidagi umumiy miqdoridan 36,4% ni tashkil etadi. Kasanachining respublika uchun noan'anaviy bo'lgan ushbu turi mazkur yilda qabul qilingan respublika maqsadli dasturning amalga oshirish natijasida rivoj topdi. Yangi ob'yektlarni ishga tushirish amaldagi ishlab chiqarishlarni rekonstruksiya qilish va kengaytirish hisobidan tashkil etilgan ish o'rinlarining katta qismi mehnatni sarflashning nodavlat tarmog'ida tuzilyapti, buning natijasida unink bandlikdagi ulushi 78,2% ga ko'tarildi.

Aholining tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlarning osishiga hukumat tomonidan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va kichik tadbirkorlikni rag'barlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotganligi imkoniyat yaratdi. Yirik sanoat korxonalari va uy xizmati o'rtasidagi hamkorlikni kasanachilikning turli shakllarini rivojlantirish orqali rag'batlantirishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida , 115,6 ming ishchi o'rinlari yaratildi. Bu o'z navbatida aholining tadbirkorlik daromadlarining oshishiga sabab bo'ldi. 2010-yilning 9-oyi mobaynida ushbu maqsadda ish bilan ta'minlashga

ko'maklashish jamg'armasidagi 10 ming kam ta'minlangan oilaga 6,6 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi.

Umuman olganda 2010-yilning 9-oyi mobaynida hukumat tomonidan byudjet sohasi xizmatchilarning ish haqlarini oshirish chora-tadbirlarini, amalga oshirilayotgan dasturlar aholining tadbirkorlikdan olgan daromadlarning oshishiga, ayniqsa, aholining kam ta'minlangan qatlamining tadbirkorlik malakasini oshishi, hisobiga aholi daromadlari o'rtasidagi tengsizlikning namoyishi, jumladan ularning hududlararo, ularning qismlarga bo'lib, differensiasiyasining qisqarishi kuzatildi.

2011-yil kasanachilik orqali ish o'rinlarini tashkil etayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun imtiyozlarning joriy etilishi, kasanachilikni tashkil etish va kengaytirishning samarali shakllarini tadbqiq etish masalalari bo'yicha faol tushuntirish ishlari olib borilgani natijasida 212,1 mingta ish o'rini, jumladan, korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha kasanachilikka asoslangan 106 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Jamiyatimiz yuksalish sari odimlab bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlab, mikroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanmoqda. Mustaqil yillari davomida yalpi ichki mahsulot ilk bor 2004-yilda 7,7% ga o'sdi. 2005-yilda ushbu ko'rsatkichning miqdori 7,0% ni tashkil etdi. 2006-yilda 7,3 %ga o'sishga erishildi. 2007-yilda esauning miqdori 7,7 %ga yetkazilgandi Oxirga ma'lumotlarga ko'ra 2011-yilning ko'rsatkichi 28,8 % ni tashkil etdi. Iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari va sohalari jadal va ixchil rivojlanmoqda. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 15,6 o'sgan bo'lsa, 2011-yilda 19.8%ga oshdi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni ishlab chiqarish ham yildan yilga ko'payib tendensiyasiga ega. Uning miqdori 2009-yilda 12,5ga oshgam bo'lsa 2010-yil uning miqdori 15,0 %ga yetdi. 2011-yilda mazkur ko'rsatkichning miqdori 17,1 ga yetkazildi. Bunday ko'rsatkichlarning osishi mamlakatimizning iqtisodiy qudrati mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Malakatimizda iste'mol mollarini ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari ham yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Iste'mol mollari ishlab chiqarish 2009-yil 14,4 % ga o'sgan bo'lsa, 2011-yilda uning miqdori misli ko'rulmagan darajaga o'sdi.

Mustsqilligimizning birinchi kunidan boshlab qat'iy pul, kredit siyosati olib borilmoqda. Bu boradagi barcha ishlarning nazorat monitoringi olib borilmoqda. Bu ta'sirchan tadbirlar inflyatsiya darajasini barqaror

pasayishiga olib kel, oqda. 2010-yilda inflyatsiya darajasi eng past bo'ldi va uning miqdori 2,1 ni tashkil qildi. 2011-yilda 7,8%ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich boshqa ilgari yillardan ancha past.

Mazkur holatlar ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlab aholining real daromadining o'sishiga olib keldi va ushbu ko'rsatkich shu 2009-yilda 15,2%, 2010-yilda 21 % ga oshdi, 2011-yilda barcha toifadagi ishchi-xodimlarning ish haqi 36,6 % ga oshdi.

Islohotlar natijasida erishilgan bunday yutuqlar, albatta, mamlakatimizda mavjud bo'lgan barcha oilalar farovonligini oshirishga olib keladi. Zero, odamlar islohotlar uchun emas, balki islohotlar odamlar uchun xizmat qilinishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 29,9 mln kishi yashaydi. Oilalarning o'rtacha kattaligi 5,1 kishini tashkil qiladi. U holda mamlakatimizdagi oilalar soni 523,5 mingtani tashkil qiladi.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida va bundan keyin ham o'zimizning muammolarimizni faqat o'zimiz hal qilamiz. Hech kim biz uchun ishlamaydi va bizning hayotimizni o'nglab bermaydi. Prezidentimiz bu borada quyidagilarni ta'kidlaydi: "Yashirishning hojati yo'q, hozirgi kunda bu turli qiyinchiliklarni boshimizdan kechiramiz, hali yechilmagan muammolarimiz ham ko'p. Lekin inkor etib bo'lmaydigan bir haqiqat borki, agar o'zimiz jon kuydurmasak, o'zimiz ishlamasak, hech kim chetdan kelib bizning o'rnimizga ishlamaydi, bu muammolarni hal qilib bermaydi"

Bu muammolarning asosiy yechimi mamlakatimizda boshlangan islohotlar va erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan davom ettirish, uni mantiqiy yakuniga yetkazish, taraqqiyotga g'ov bo'lib, kelayotgan byurakratini to'siqlarni olib tashlash, odamlarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun tegishli sharoit yaratish, har bir kishi o'z kuchi, aql-idrokiga ishonib yashash ruhiyatini singdirish, har bir oilada hech bo'lmaganda bittadan tadbirkorning erkin faoliyat ko'rsatishini ta'minlash kabi tadbirlardan iboratdir. Bunga erishish unchalik oson ish emas, lekin xalqimizning farovonligini ta'minlash uchun bunga erishmog'imiz ham farz, ham qarz.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Agarki, bizga katta umid va ishonch bilan qaraydigan odamlarning dasturxonida, oilaviy ahvolda, ro'zg'or tebratishida umuman, kundalik hayotida ijobiy o'zgarishlar ko'zda tashlanmasa, bu aholining haqli etirozi, noroziligiga olib kelishi tabiiy hol".

Ammo bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Chunki bizdagi imkoniyatlar xalqimizning farovon yashashi uchun yetarli. Faqat shu imkoniyatlardan oqilona foydalanishi, hamma joyda har kuni, hammaning mehnat qilishining ta'minlashga erilishi lozim. Bu, albatta, mahalliy hokimiyatlardan va boshqa mutasaddilardan katta tashkilotchilikni bilim va mahoratni, tashabbus va tadbirkorlik xislatlarini ishga solishni talab qiladi.

Shuni alohida takidlash lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi-odamlarimizga, har bir oilaga munosib turmush sharoitini yaratib berishdan iborat. Bu albatta, naqadar murakkab va masuliyatli vazifa, bunday maqsadga erishish uchun faqat amaliy tadbirlarni amalga oshirish yetarli emas. Ushbu sohani chuqur tadqiq qilib, har bir oilaning farovonligini ta'minlash uchun ilmiy asoslangan, tavsiyalar ishlab chiqishni taqazo qiladi. Bular mazkur ishning dozarbligini belgilaydi.

Ishda oila xo'jaligi farovonligini oshirish bilan farovonligini oshirish bugungi kunda ustuvor vazifa emasligi, oila xo'jaligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bugungi kundagi holati va ularning iqtisodiy tutgan o'rni, ularning sohalari bo'yicha rivojlanishi qarab chiqilgan.

Mazkur masalani yoritishning asosiy maqsadi mamlakatimizda har bir oilaning farovonligi jamiyat taraqqiyoti uchun, uning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun muhimligini mutasaddi tashkilotlar rahbarligiga va har bir oila boshlig'iga singdirishdan iboratdir. Har bir oilaning farovonligini shu oila a'zolarining o'zlari ta'minlaydi. Ular hech kimdan najot kutib yashamasligi kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotning rivojlanishi bevosita xususiy mulkdorlar sinfining vujudga kelishi va shakllanishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Chunki davlat tasarrufidagi mulk xususiylashtirildi va bu jarayon davom etmoqda, ya'ni yaratilgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar esa, asosan xususiy mulk zahirida shakllanib rivoj topmoqda. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz iqtisodiyotining asosini xususiy mulk zahirida faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'yektlarini tashkil qilmoqda. Tadbirkorlik sub'yektlari ichida oilaviy tadbirkorlik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ammo hozirgi kunda oilaviy tadbirkorlik statistik ma'lumotlarga alohida ko'rsatilmoqda emas. Bu sub'yektlarning ham statistikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati, ularning iqtisodiyotimizdagi hissasining oshib borishi bilan birga, uning ijtimoiy ahamiyati ham oshib bormoqda. Shu tufayli ushbu sohani o'rganishga bir qancha adabiyotlar, ilmiy maqolalar bag'ishlangan. O'zbekiston

Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan tadbirkorlikka oid qonun hujjatlari to'planib nashr qilingan.

Xususiy mulkka, ya'ni oilaviy tadbirkorlikka asoslangan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shaklida namoyon bo'lmoqda. Ammo bu sohani rivojlantirish o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Bu muammo sohani rivojlantirish O'zbekiston uchun yanada murakkab, chunki mazkur sohani rivojlantirish uchun, birinchidan zamonaviy tadbirkorlik sinfi shakllanmagan bo'lsa, ikkinchidan, bu sohada tegishli darajada tajriba ham to'planmagan, uchinchidan esa eng muhimi, ularni rivojlantirish uchun tegishli texnologiya va moliyaviy mablag'lar ham yetarli emas. Bularni inobatga olib 2006-yilning oktabr oyidan boshlab "O'zenspo" Markazida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka mos keladigan mini texnologiyalar yarmarkasi tashkil qilindi. Bu yarmakadan nafaqat shaharlik tadbirkorlar, balki qishloq joylarda tadbirkorlikni amalga oshiradigan dehqon va fermer xo'jaliklari ham keng miqyosida foydalanishi ko'zda tutilgan. Chunki, ushbu sohani rivojlantirmasdan turib, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu boisdan kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimizning kelajagini belgilaydigan asosiy sohalardan biriga aylanmoqda, zero, bu soha yangi ish o'rinlarini ochish bilan birga, iste'mol bozorini tovar va mahsulotlar bilan to'ldiradi, turli xizmatlar tizimini yaratadi, mamlakatning YAIM da tegishli ulushga ega bo'ladi. Birgina 2010-yilda "xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga 433 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etildi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham ortdi. Bunday muhim istiqbolli sohani rivojlanish yo'llarini, uning taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan omillarni atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq qilishni taqazo qiladi,

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keskin chora-tadbirlar ko'rildi. Xususan:

- ularning ehtiyoji uchun naqd pul berishda mavjud bo'lgan cheklashlar bekor qilindi
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga yuqori likvidli tovarlar ishlab chiqarish va sotishlari uchun keng yo'l ochib berildi
- ularning faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar takomillashtirdi
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan imtiyozlar tizimi shakllantirildi

- ularning faoliyatiga davlat va nazorat qiluvchi organlarning aralashish jarayoni kamaytirildi.
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy va huquqiy erkinliklari kengaytirildi
- Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga ruxsat berish jarayoni soddalashtirildi va keskin qisqartirildi
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining mulki, ularning erkin faoliyat yuritishlaridagi iqtisodiy xavfsizliklari mamlakatimiz qonunlari bilan kafolatlanadi

Mazkur ko'rilganchora-tadbirlar ushbu sohaning iqtisodiy tutgan o'rnini oshirishga olib kelgan va bu jarayon davom etmoqda.

Dunyo amaliyotida ham oilaviy tadbirkorlik bilan shug'ullanishning turli yo'llari mavjud. Masalan, amerikalik kishilar tadbirkorlikni bino axtarishdan boshlar ekan. Nemislar esa, eng avvalo, zamonaviy ilg'or texnologiyalar bilan tanishishdan boshlaydi. Yaponlar esa, o'z tadbirkorligini korxonaning bo'lg'usi xodimlarini o'qitishdan boshlar ekan. Haqiqatdan ham, inson salohiyatini oshirishga qaratilgan mablag'lar eng samarali sarmoya hisoblanadi. O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni, mablag' axtarishdan boshlaydi. Chunki bizda, ko'p hollarda, mablag' yetishmaslik muammosi xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining, ayniqsa, oilaviy tadbirkorligining rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Buni inobatga olib mamlakatimiz rahbariyati aholiga turli kreditlarni berish, kichik biznes, vakillari va xususiy tadbirkorlikni minikreditlash masalasini ustuvor qilib qo'ydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarning rivojlanishga to'siq bo'layotgan omillardan biri, bizda marketing xizmati yaxshi yo'lga qo'yilmaganligidir. Buning oqibatida juda ko'p ishlab chiqarilgan, ammo aholi uchun juda zarur bo'lgan tovarlar, ko'pgina omborlarda sotilmasdan turmoqda. Bu holatni izohlash uchun birgina misolni keltiramiz "2002-yilda respublikamiz bo'yicha sotilmayyotgan tayyor mahsulotning umumiy qiymati 3 milliard 800 million so'mdan ziyodni tashkil etadi". Bunday holat 2003-2006-yillarda ham jadal ravishda o'nglangan emas. Bulardan ko'rinib turibdiki, katta hajmdagi moddiy boyliklar, mulk shaklidan qat'iy nazar, ishlatilmasdan harakatsiz yotibdi, ko'plab turdagi xom-ashyo va materiallar, shuningdek, aylanma mablag'larning behuda sarf etilishiga yo'l qo'yilmoqda.

Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida 2010-2011-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining tarkibiy tuzilishi.

№	Sohalar va tarmoqlar	2010-yil		2011-yil	
		Miqdori, ming dona	Ulushi %	Miqdori, ming dona	Ulushi %
1	sanoat	20,1	9,1	19,5	7,8
2	Qishloq xo'jalik	146,2	66,0	176,6	70,3
3	Transport va aloqa	2,3	1,1	2,7	1,1
4	qurilish	10,9	4,9	11,8	4,6
5	Savdo va umumiy ovqatlanish	42,3	18,9	40,9	16,2
	Jami	221,4	100,0	251,6	100,0

Manba: O'zr Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti.

Bu jamiyatimiz va davlatimiz iqtisodiyoti uchun ham katta zarardir. Tovarlarini ishlab chiqarishda, eng avvalo, ularning sotilishini ko'zlab ishlab chiqish vaqti allaqachon yetib kelgan. Ammo bu tamoyil bilan faoliyat ko'rsatishga o'qish masalan har bir tadbirkorning kun tartibida munosib o'rin egallagan bo'lishlari lozim.

Tahlillar ko'rsatdiki, xususiy (oilaviy) tadbirkorlik sub'ektlarining tez rivojlanib ketishiga to'siq bo'layotgan omillardan yana biri ular hajmining kichikligi, tashqi omillar ta'siriga tez beriluvchanligi, bozorning torligi, moliyaviy imkoniyatning cheklanganligidir.

Bulardan tashqari, oldindan ishlab kelayotgan ko'plab korxonalarimiz bozor munosabatlari sharoitiga va talablariga o'ta sekinlik bilan moslashayotganligidir. Ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan korxonalarda, ta'kidlanganidek, mahsulotni sotish qiyin kechmoqda.

Bu esa iqtisodiyotimiz rivojiga salbiy ta'sir qilmoqda, korxonalar faoliyatiga ham katta to'siq bo'lmoqda. Bunday xolatning juda ko'p korxonalarda mavjudligi, mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yangi yo'nalish bo'lgan marketing xizmatini yo'lga qo'yishni taqozo qilmoqda.

2.4. Buxoro viloyati miqyosida bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslarining to'g'ri taqsimlanishi aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. 2011 yil yanvariga qadar viloyat aholisi soni 153,9 ming, shundan yoshlar 859,5 ming va ayollar 796,7 mingni tashkil etadi. Viloyatda mehnat resurslari 881,1 ming shu jumladan, ayollar 642,3 ming kishi (63,2%) ni tashkil etmoqda. Band bo'lgan 677,6 ming kishining asosiy qismi (68,5%) nodavlat sektorda faoliyat yuritmoqda.

2010-yil davomida shahar va tuman mehnat bo'limlariga 20466 nafar fuqaro ish qidiruvchi sifatida murojaat qilgan. Sulardan 11623 nafari (56,8%) yoshlarni va 9600 nafari (46,9%) ayollarni tashkil etadi.

Viloyat mehnat organlari tomonidan 16160 nafar ish bilan band bo'lmagan fuqaro ishga joylashtirildi. Ularning 56,9 % ni (9324 nafar) yoshlar va 45,5 %ni (7351 nafar) ayollar tashkil etadi. Mehnat bo'linmalariga murojaat qilganlarning asosiy qismi kichik biznes va tadbirkorlik sohalariga ishga joylashtirildi.

2011-yildagi mehnat organlari faoliyatini baholovchi ko'rsatgichlar shundan dalolat beradiki, hisobot davrida mehnat organlari tomonidan ro'yxatga olinganlarning 2169 nafariga ishsizlik nafaqasi tayinlandi.

O'zbekiston Respublikasi "Aholini ish bilan ta'minlash" to'g'risidagi qonunnining bajarilishini ta'minlash maqsadida "aholini ish bilan ta'minlash" "Bandlik 2011" dasturiga asosan, yil davomida viloyatda ishga joylashtirishning barcha yo'nalishlari bo'yicha dasturdagi 39230 ta o'rnini jami 40955 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, reja 104,4 foizga uddalandi.

Yangi ish o'rinlari yaratilishining tarmoqlar bo'yicha ko'rsatgichlari quyidagicha:

- yangi korxonalar tashkil etish hisobiga 1556 ta;
- mavjud korxonalarni rekonstruksiya qilish hisobiga 896 ta
- kichik va xususiy korxonalar ochish hisobiga 10693 ta
- yakka tartibdagi tadbirkorlik hisobiga 3827 ta
- yangi fermer xo'jaliklari hisobiga 10955 ta
- uy mehnatini rivojlantirish hisobiga 11239 ta
- ijtimoiy va bozor tuzilmasini rivojlantirish hisobiga 1911 ta

Jami ish o'rinlarini asosiy qismi, ya'ni 95,7 foizini nodavlat sektori, kichik va xususiy korxonalar tomonidan yaratildi. 2011-yil davomida viloyat mehnat organlari tomonidan 372 nafar ishsiz fuqarolar turli

kasblar bo'yicha "Usta-shogird" asosida kasb-hunar o'rganishga jalb etildi. Ularning 340 nafarini (91,4%) xotin-qizlar, 342 nafarini (92%) yoshlar tashkil qiladi. Kasbga o'qitish, qayta tayyorlash ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi hisobidan jami 2036,68 ming so'm mablag' jalb qilindi.

Ishga joylashtirish yo'nalishlaridan yana biri haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish hisoblanadi. O'tgan yil davomida mehnat bo'limlari tomonidan korxona, tashkilot, xo'jaliklari bilan shartnomalar tuzilishi hisobiga 864 nafar ishsiz fuqarolar vaqtinchalik ishlarga yuborildi.

"Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi" qonunga ko'ra korxona, tashkilot, muassalar ish bilan ta'minlashga doir davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etib ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun kafolatlangan ish joylari tashkil etishlarilozim.

Bu borada shahar va tuman hokimlari qarorlari asosida viloyatdagi korxona va tashkilotga 4364 ta maxsus ish joyi davomida 4644 nafar kishi ish o'rinlarga joylashtirildi.

Aholining ijtimoiy himoya qilinishi imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida viloyatda bo'sh ish o'rinlari yarmarkalari o'tkazilishiga aholiga e'tibor berilyapti. Yil davomida shahar va tuman mehnat organlari, hokimliklar, o'z-o'zini boshqarish organlari va boshqa maqsadda tashkilotlar bilan hamkorlikda, voliyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan jadval asosida 81 marotaba mehnat bozori yarmarkalari tashkil qilindi. O'tkazilgan mehnat yarmarkalariga 1915 ta korxona va 11994 ta bo'sh ish joyi bilan ishtirok etdi.

Mazkur yarmarkalarga qatnashgan 5647 nafar fuqarodan 3615 nafarini yoshlar tashkil etadi.

Ish so'rab murojaat qilganlardan 2670 nafari, ishga joylashtirildi, 130 kishi kasbga tayyorlashga yuborildi, 30 kishi haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi, 1872 nafar kishiga turli xil maslahatlar berildi.

2011-yil davomida kasanachilikni rivojlantirish hisobidan 7290 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, yillik reja topshiriq 104,7 foiz bajarildi. Ular tomonidan 1613,7 million so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqarildi. Kasanachilik mehnati evaziga imtiyozlardan foydalangan korxonalarda 25,0 mln so'mga yaqin mablag'lar tejab qolindi.

Kasanachilikni o'rtacha ish haqi 80 ming so'mni tashkil etdi.

Kasanachilikni rivojlantirish hisobidan Buxoro shahridagi "Buxoro-yog", "Zarkon", "Maishiy texsoz" korxonalari Kogon shahridagi "Trubedetal" hissadorlik jamiyati, Shofirkon tumanidagi paxta tozalash

zavodi kabi korxonalar tomonidan kasanachilik yo'nalishida yangi ish o'rinlari yaratilib, dasturda belgilangan rejaning ortig'i bilan bajarilishiga erishildi.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-martdagi "shaxsiy yordamchi, denqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishning rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida barcha tadbirlar belgilanib, quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Mehnat bo'limi xodimlari mehnat daftarchasi ochish uchun ariza bergan fuqarolarning uylariga borib, tushuntirish hamda so'rovnomalar o'tkazishdan so'ng, mehnat daftarchalari rasmiylashtirilib berilmoqda. Uyma-uy yurib aniqlangan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga yirik shoxli qoramol boqish va chorvachilik mahsulatlari ishlab chiqarish bilan band bo'lgan fuqarolarni aniqlash ishlari olib borilmoqda, ya'ni yil davomida 24460 ta xonadonga so'rovnoma o'tkazildi.

Bosh boshqarma tomonidan viloyat tijorat banklariga qaormollatni sotib olib, ko'paytirish bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga ish bilan ta'minlashga ko'maklashovchi davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan jami 508,2 million so'mlik kredit mablag'lari ajratildi.

Qishloq va mahalla fuqarolar yig'indilariga fuqarolarning mehnat daftarchasini ochish haqida bergan arizalari soni 52814 tani tashkil etmoqda.

Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollar boqish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan band bo'lgan fuqarolarga mehnat daftarchasini ochish uchun olingan arizalar mehnat bo'limlariga belgilangan tartibda ro'yxatga olinib tahlil qilinmoqda.

2011-yil davomida 53712 nafar fuqaroga mehnat bo'limlari tomonidan mehnat daftarchasi rasmiylashtirib, ro'yxatlari ijtimoiy-ta'minot bo'limlariga taqdim etiladi.

Shu bilan birga voyaga yetmagan bolalari bor oilalardan fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlariga 88754 ta ariza tushgan va 84154 ta oilaga nafaqa tayinlangan.

Shu uchun tuzilgan qaydnomalarga asosan moliya bo'limlari tomonidan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hisob raqamlariga 6,4 mlrd so'm mablag' o'tkazilib to'lanish to'liq ta'minlangan.

Ishlanayotgan onalardan bolasi ikki yoshgacha parvarish qilish nafaqasi olishni so'rab fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga

25112 nafar kishi murojat qilgan, ularning 24112 nafariga nafaqa tayinlangan.

Ya'ni belgilangan tartibda ko'ra ushbu qarorni amalga oshirish uchun tuzilgan to'lov qaydnomalariga asosan moliya bo'limlari tomonidan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hisob raqamlariga 5782315 ming so'm mablag' o'tkazilgan bo'lib, uning to'liq to'lanilishiga erishilgan.

Bundan tashqari, 2011-yil davomida o'zini-o'zi boshqarish organlariga moddiy yordam so'rab murojaat qilgan 15689 ta oiladan 15523 tasiga moddiy yordam va muruvvat yordamlari nogironlar uchun ko'rsatilgan.

Yirik sanoat korxonalari va kasanachilik asosida xizmat ko'rsatish o'rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlar, ishlab chiqarishlarni mahalliyashtirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, sanoat sohasida band bo'lganlar dinamikasida ijobiy aks etdi.

Sanoat sohasida band bo'lganlarning 3,6 foizga ortdi. 2011-yilning 9-oyi natijasiga ko'ra sanoat-ishlab chiqarish xodimlarning (SICHX) miqdori, o'tgan yildagi darajaga nisbatan 10.9 ming kishiga o'sdi.

Mahalliyashtirish Dasturini amalga oshirish davomida yaratilgan ishchi o'rinlarining miqdori 2,0 ming kishidan oshib ketdi. SICHX miqdorining tarkibida ishlov berish sohasining ulushiga 62% dan ortiqrog'i to'g'ri keldi, bunda mashinasozlikdagi SICHX ulushi umumiy miqdorda 14,6 % dan 15% gacha ortiq tendensiyasiga ega bo'ladi.

Yana bir muhim masala, agar qishloq joylarida birorta xonadonda qoramol bo'lmasa, ularga homiylar tomonidan qoramollar olib berilib, moddiy yordam ko'rsatildi. Ayni paytda qoramol sotib olish va ularning sonini ko'paytirish maqsadida olinayotgan kreditlarni banklarda soddalashtirilgan holda rasmiylashtirish qoidalari joriy etildi.

Istiqbol yillarida yurtboshimiz iste'mol bozorini to'ldirish xalq iste'moli mollarini ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratmoqda, jumladan, kasanachilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini tobora kengaytmoqda. Uy bekalari o'z uyida ishlab, katta sanoat korxonalarining buyurtmalarini bema'lol bajarmoqda. Aholining muayyan qatlamini shu yo'l bilan band etishga qaratilgan oqilona siyosat o'zini oqlamoqda.

Bu borada kishilarimizga mikro kredit hamda maxsus fondlardan imtiyozli mablag'lar berish yo'lga qo'yilgani, lizing orqali kichik dastgohlar olish kabi qulayliklar yaratilgani, bunda kredit uyushmalariga qonun doirasida keng imkoniyatlar berilgani e'tibor molikdir.

Bugun, zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan korxonalarimizda “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan” belgisi bilan mahsulotlar chiqarilib, tashqi savdoga ham ijobiy savdoga erishmoqda.

2.5.Kasanachilik masalalari bilan bog‘liq mayzularni o‘rganishda qo‘llanilishi tavsiya etiladigan yangi interfaol o‘qitish usullari

O‘qituvchining ma‘ruzaga texnologik va metodik jihatdan tayyorlash, aqliy rivojlanishi, o‘qitishni faollashtirish, yangi o‘qitish texnologiyasi bilan qurollantirish jarayoni uzoq va tinimsiz izlanishlarni talab etadi.

- 1 Tahlilni va o‘ziga talabchanlikni kuchaytiradi.
- 2 Muammolarni yechishni osonlashtiradi.
- 3 Qiyosiy tahlil, sharxlab o‘rganish qulay usul
- 4 Obrazlarni qiyoslash
- 5 She‘rlarni qiyoslash
- 6 Adiblar ijodini qiyoslash
- 7 Davrni qiyoslash
- 8 Tarixiy jarayonni qiyoslash

Pedagog muvaffaqiyotining siri nafaqat u qo‘llayotgan texnologiyalarda, balki pedagog tarbiyachi sifatidagi mahoratida, bolalar qalbida yo‘l topa olishida ko‘rinadi. Har bir pedagogning u qanday texnologiyani qo‘llamasin, pedagog muomalasi betakrordir. Chunki har qanday texnologiya jonli hissiyotlarga to‘la insoniy munosabatlar, pedagogik muomala hamda mahoratning o‘rnini bosa olmaydi.

Zamonaviy texnologiya haqidagi fikrimizni davom ettirar ekanmiz, uning afzalliklari, o‘ziga xos uslubiy yo‘nalishlarini aniqroq izohlab olinishimizga to‘g‘ri keladi. Darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha hosilalar asosida javob berish mumkin.

- 1 Yangi pedagogik texnologiya eng qulay va sodda usul
- 2 Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi

- 3 Ko'p tarmoqli
- 4 Sodda, oson
- 5 Esda qolishi kuchli
- 6 Vaqtdan yutamiz
- 7 Qiziqarli o'tadi
- 8 Darsni samaradorligini oshiradi
- 9 Dunyoqarashni kengaytiradi
- 10 O'quvchilarning diqqat e'tiborini tortadi.
- 11 Xotirani kuchaytiradi
- 12 Izlanishga chorlaydi
- 13 O'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etadi.

“Fikriy hujum” metodi o'quvchi yoki talabalarning mashg'ulot jarayonidagi faolligini ta'minlab, erkin fikr yuritishiga o'rgatadi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlash, muayyan mavzuni muhokama qilishga, yangi muammolarni keltirib chiqarishga ijodkorlikka yetaklaydi. Ko'ndalag turgan masalani hal etish, yechish jarayonini osonlashtiradi. Dars jarayonida o'rta tashlangan savol va uning javoblari luqma va hazil mutoyibalardan iborat bo'lib, bahs munozara mashg'ulotida o'quvchilarning erkin ishtiroki oshadi.

6x6x6 metodi guruhlarining har bir a'zosini, faollik, o'z kifrini ifoda etish guruhdoshlarining fikrini tinglash va tanlay olish, o'rta tashlanayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, o'z fikrini himoya etishga o'rgatadi.

Ushbu metodni, 5,6,7 va hatto 8 nafar o'quvchi yoki talabadan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin.

6x6x6 metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik va nutqiy pedagogik mahorat, shuningdek guruhlarini maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishini talab etadi. Guruhlarni to'g'ri shakllantirmaslik topshiriq yoki vazifalarni to'g'ri hal etmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

“Aqliy hujum” metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarning hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishdir. Aqliy hujum metodidan foydalanishda, bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo davrasida keng fikr yuritish, ular qobiliyatini chaexlashga undash. Har bir o'quvchi yoki talaba tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar mazmuni va miqdori aniqlab boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar

orasidan eng maqbullarini tanlab olishga imkon beradi. Har bir talaba g'oyalarga asoslangan holda ularni o'zlashtirishi mumkin.

Klastr metodi pedagogik, didaktik ta'limning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchi yoki talabalarga ixtiyoriy muammolar xususida, erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqador to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmasini aniqlashni talab etadi.

Klastr metodi aniq narsaga yo'naltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchi yoki talabalar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilgunigacha fikrlash faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'qituvchining pedagogik mahorati, muloqot ma'daniyati, nutqining ravonligi, aloqaviy mahoratning talabalarga ta'siri, pedagogik nutq texnikasini egallaganlik darajasi o'z navbatida yangi aloqaviy texnologiyaga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu jarayon o'qituvchi faoliyati va uslubiyatining turli ko'rinishlari orqali amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyat shakllari o'qituvchining talablar asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulot davomida hikoya, erkin suhbat, muloqot munozara darslarida namoyon bo'ladi. Masalaning mana shu tomoni yanada ravshanlashadi va sintez usuli eng qulay dars jarayonini ta'minlaydi.

“Bozor iqtisodi” bilan bog'liq davrda bolalarni biznesga o'rgatishning ahamiyati kattadir. Zero, bolalar ertangi kunda mustaqil hayotga qadam qo'yganlarida turli xil hayot to'siqlariga duch keladilar. Ana shu maqsadda “Aqliy hujum” uslubini qo'llagan holda noan'anaviy uslubda o'tkazilgan “O'zbekiston sharoitida kasanachilikni rivojlantirish va uning afzalliklari” mavzusidagi dars ishlanmasini tajriba almashish maqsadida ko'rib chiqamiz.

Mavzu: O'zbekiston sharoitida kasanachilikni rivojlantirish va uning afzalliklari.

Darsmaqsadlari : a) Kasanachilik, uning mazmun va mohiyatini anglash

b) o'quvchilarga taqqoslash, anglash, mustaqil firlashni o'rgatish.

v) bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining talablari, kasanachilik faoliyatining respublikamiz xalq xo'jaligi uchun ahamoyati borasidagi bo'limlarni mustahkamlash

Darsning borishi:

1 Darsning tashkiliy qismi-3 daqiqa

- 2 Aqliy hujum-20 daqiqa
- 3 Anglash darsliklar bilan ishlash (inter uslubda)-30 daqiqa
- 4 Fikr yuritish-10daqiqa
- 5 Yangi mavzuni mustahkamlashi-7 daqiqa
- 6 Dars yakuni, uyga vazifa (biznes reja tuzib kelish)-5 daqiqa

Dars paytida pedagog barcha rasmiyatchiliklarni olib tashlashi lozim, barchaga birdek e'tiborda bo'lishi lozim, barchaga o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish kerak.

“Kardlar tayyorlash milliy dasturi” talablariga ko'ra fan , texnika, yangi texnologilarni qo'llashda erishilgan natijalar, boy ma'daniy-tarixiy, ma'naviy-axloqiy an'analarimizni va jamiyatimizda vujudga kelgan yangi qadriyatlarni hisobga olib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va mazmunan takomillashtirishni davom ettirishni taqazo etadi.

Yangi pedagogik texnologiya asosida darsni tashkil etish, qadimgi sharqona tarbiya tamoyillaridan butunlay voz kechish kerak degan gap emas. Yangi pedagogik texnologiya g'arb ta'lim jarayonining eng ilg'or tamoyillarni bo'lsada, sharqona an'analar, pandnoma-didaktik ruhida tarbiyani kuchaytirish hamma vaqt milliy tarbiyamizning asosini tashkil etadi

Didaktik-pandnoma:

- 1 Odamlarning yaxshiligini o'z yaxshiliging bilan aralashtirma
- 2 Boyliging miqdorini do'st-u-dushmanga bildirma
- 3 Qarindoshni qarindoshdan ayirma
- 4 Yaxshi odamni g'iybat bilan yod qilma
- 5 Faqat o'zingni o'ylama

Dars jarayonida qisqa daqiqa to'xtash (pauza) saqlab, shu xildagi pandnomalarni izohlab o'tish ham katta ahamiyatga egadir.

Dars jarayonida muayyan tanqidiy mulohazalarni muhokama etish, ular ustidan hukm chiqarish va ma'lum bir to'xtamga kelish kerak.

Yuqoridagi mavzuni o'rganishda iloji bo'lgan taqdirda tasvirli – vizual vositalarni keng qo'llash zarur. Chunki vizuallashtirish asoslari berilayotgan o'quv ma'lumotlarini yaxshi yodda saqlay olish imkoniyatlarini kengaytiradi va taqdim etilgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonini faollashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, oilalarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakillantirishning asosi bo'lgan xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish oilaviy tadbirkorlikni ya'ni kasanachilikni jadal rivojlantirishni taqazo etadi.

Bugungi kunga kelib bozor munosabatlarining shiddat bilan rivojlanish kasanachilik sohasida yangicha yondashishni talab etib, oilaviy tadbirkorlikning bunday an'anaviy ko'rinishini tlklay boshladi. Bugun ular oilaviy korxonakar, xonadon sexlari, oilaviy tadbirkorlik va mikrofirmalar deb ham yuritilmoqda. Bunda xalqning turli qatlami o'z mehnati, oila a'zolari mehnatiga tayanib, ariza berish asosida davlat ro'yhatidan o'tib faoliyat yuritmoqdalar. Biroq, shuni aytib o'tish kerakki, kasanachilik faqat shahar axolisini ish bilan ta'minlashgagina mo'jallangan emas. Bu usul bilan qishloq va shahar aholisi bimalol shug'ullanishlari mumkin. Bu faoliyatning chegarasi belgilanmagan. Qaysi bir ish joylarida ish beruvchi korxonalar mavjud bo'lsa, kasanachilikni tashkil qilsa bo'ladi. Kasnachilikning dolzarbligi aholini ish bilan ta'minlash bilan birga, ularning daromadlarini oshirish, davlat byudjetiga tushumlarni ko'paytirish, pirovardida, oila farovonligini, xalqning to'kin – sochin xayot kechirish imkoniyatlariga ham ega bo'ldi.

Men, bitiruv – malakaviy ishimning so'ngida, mavzumning xotimasida uning muhim qirralarini tushungan holda kasanachilik faoliyatining Respublikamizda ommalashuvi haqida o'z taklifimni bildirmoqchiman:

- Respublikamizning barcha aholisi ushbu sohaning mazmun – mohiyatini tushunib etishi uchun ularga xizmat ko'rsatuvchi organi tashkil etish, mavjud ommaviy axborot vositalari orqali kasanachilik haqida ma'lumot berishni;
- Kasanachilik sohasini tartibga soluvchi ishlab chiqilgan qonunlarning qayta ko'rilishini, xalqning ijtimoiy ximoyalanishi uchun iloji boricha imtiyozlar va qonunning amalda ishlashini yo'lga qo'yish;
- Kasanachilikni rivojlantirish uchun katta va o'rtacha korxonalar bilan kasanachilar o'rtasidagi aloqalarni shakllantirish;
- Korxonalar bilan kasanachilar faoliyatini jalb qilish maqsadida axborot va tashviqot ishlarini jadallashtirish va to'g'ri yo'lga qo'yish;
- Axolining asosiy qismi qishloq joylarida yashashini inobatga olib, asosan qishliqda kasanachilikni rivojlantirish ayni muddao bo'lardi va bu ishsizlik darajasini birmuncha pasayishiga olib keladi;
- Mening fikrimcha yana bir muhim narsa, kasanachilikni rivojlantirish ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan hunarmandchilikning ko'pgina turlarini saqlab qolish va milliy qadriyat va iftiorimiz sifatida kelajak avlodlarga etkazib berish imkonini yaratib beradi.

Xullas, men kasanachilik sohasiga ko'proq e'tibor qaratilishining tarafdoriman.

Men o'ylaymanki, yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosat kelajakni ko'ra bilgan holda, puxta tayyorlangan holda amalga oshirilmoqda va ko'rib turganimizdek, yurtimiz kundan – kunga chiroy ohib, xalqimizning farovonligi oshib, dunyo mamlakatlari qatoridan joy olmoqdamiz. Bunday jannatmakon yurtda yashayotganimizdan faxrlanishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. T. Uzbekiston, 1992y.
2. Ta'lim haqida qonun.T.,Uzbekiston.,1997 y.
3. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida.T., O'zbekiston., 1995 yil.
4. Karimov I. A. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.,O'zbekiston., 1996 yil.
5. Karimov I.A.Xalollik va fidoniylikfaoliyatimizning asosiy me'zoni bo'lsin T.,O'zbekiston.,1994 y.
6. Qadrlar tayyorlashning milliy dasturi.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonuni,T.,Uzbekiston.,1997 y.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafjura. T.1.T. Uzbekiston, 1996y.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obodvatan qolsin. T.2. T. Uzbekiston, 1996y.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.T Uzbekiston, 1996y.
- 10.Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. T.4.T.Uzbekiston, 1996y.
- 11.Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash– darv talabi. T.5.T. Uzbekiston, 1997y.
- 12.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.T. Uzbekiston, 1998y.
- 13.Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7.T. Uzbekiston, 1999y.
- 14.Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot –pirovard maqsadimiz. T.8.T. Uzbekiston, 2000y.
- 15.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9.T. Uzbekiston, 2001y.

16. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun qurashmoq kerak T.10.T. Uzbekiston, 2002y.
17. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. Sharq, 1997y.
18. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. T. Uzbekiston, 2000y.
19. "Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish to'g'risidagi " UR Prezidenti farmoni . "Xalk so'zi " gazetasi., 2006 yil, 7 fevral.
20. Kasanachilik to'g'risidagi Nizom. 2006 y., 11 yanvar., "Xalk so'zi" gazetasi.
21. Mavlonova R., Turayeva J. Pedagogika. T. Ukituvchi, 2001y.
22. Профессиональная педагогика. Учебник для студентов, обучающихся По педагогическим направлениям. М. Профессиональное образование, 1997 г.
23. Faberman B.L., Musina R.G., Jumabayeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T. 2002y.
24. Беспалько В. Слагаемые в педагогической технологии. М. Педагогика, 1999 г.
25. Всемирная декларация о высшем образовании для 21 века: подходы и практические меры. Париж, 1998 г.,.
26. Yo'ldashev J. Pedagogika fani va O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish muammolari. Xalq ta'limi, 1995y, 3-4-son 1-12bet.
27. Pedagogika. (A. Munavvarov taxriri). T. Uzbekiston. 1996y.
28. Подлысый И.П. Педагогика. Новый курс. М. 1999 г.
29. Подказистый П.И., Фридман В., Гаригов М.Т. Психолого – дидактический справочник преподавателя высшей школы. М. 1999 г.
30. Психология и педагогика. Под. ред. А.А. Радугина М. Центр. 1999 г.
31. Психология и педагогика: учебное пособие. Под. ред. В.М. Николаенко. М. Infra – М., 2005 г.
32. Равен Джон младший. Педагогическое тестирование: проблемы, заблуждения, перспективы. Пер., с англ. М. 2009 г..
33. Sodmonov va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T. 2004y.
34. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T. 1995y.
35. Beknosov N., Yo'ldoshev Z. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. O'quv qo'llanma. T. 1993y.
36. Makkonell K.R., Брю S.L. Ekonomiks. 1-tom.
37. Samuelson P. A. Ekonomika. М. МГИУ, Алтон. 1992y.
38. Borisov E.F. Ekonomicheskaya teoriya. М. 1993g.
39. Eshmuxammedov va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T. TDIU, 1993y.

40.Fisher S., Dornbush R., SHmalenzi R. Ekonomiks. M. Delo. 1993g.
41.Raxmankulov X.R. Bozor iktisodiyoti asoslari. 1995y.

42.Eshmuxammedov Makroiqtisodiyot. T. 2004g.

43.Мировая экономика. Учебное пособие для студентов ВУЗов. М.2009 г

44.“Huquq va burch “jurnli. № 7 2009 .

45.“Bozor, pul, kredit “ jurnali №№ 3, 8 2010 y.

46.“O’zbekiston iqtisodiyoti” , axborot va tahlil. Yanvar – sentyabr 2011 y.

47.O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2 – 7 son, 2010 y.

Internet saytlari

- <http://www.rbcnet.ru> «Ekonomika i Jizнь»
- www.school.edu.ru.
- [www.inter – pedagogika.ru](http://www.inter-pedagogika.ru).

www.ecsoman.edu.ru